Maxfuza Xodjayeva

MUSIQA

3

O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma

Toshkent – 2022

UO‘K 78(072)
KBK 85.31
N 79

Muallif:

Maxfuza Xodjayeva – O‘zbekiston san’at va madaniyat instituti vokal kafedrasi dotsenti.

Taqrizchilar:

S. Muzafarova – O‘zbekiston san’at va madaniyat instituti vokal kafedrasi mudiri,
O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, dotsent.

X. Trigulova – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti musiqa nazariyasi va metodikasi kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.

Musiqa 3-sinf [Matn]: musiqa madaniyati fani o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma / M. Xodjayeva. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 144 b.

Ushbu kitob Milliy o‘quv dasturi asosida umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun nashr qilingan yangi “Musiqa” darsligi bo‘yicha musiqa madaniyati fani o‘qituvchisi uchun metodik qo‘llanmadir. Unda umumiy o‘rta ta’lim maktabi 3-sinf uchun taqvim mavzuli reja, o‘qituvchilar uchun darslik bilan ishlash tartibi hamda musiqa madaniyati darslarini tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.

Original maket va dizayn konsepsiyasi Respublika ta’lim markazi tomonidan ishlandi.

ISBN 978-9943-8071-0-5

© Respublika ta’lim markazi, 2022

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

KIRISH

Ushbu metodik qo‘llanma musiqa madaniyati fani bo‘yicha Milliy o‘quv dasturi asosida tayyorlangan. Unda umumta’lim maktablari o‘quvchilari uchun tayyorlangan 3-sinf “Musiqa” darsligi va mashq daftari bilan ishlash usullari, baholash mezonlari berilgan.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 2-fevraldagi 112-son “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida sohani rivojlantirish bo‘yicha vazifalar berilgan edi. Unda, jumladan: “...soha uchun mutaxassislar tayyorlash, xususan, yangi davrga mos o‘quv-metodik va ilmiy adabiyotlar yaratish va ularni ta’lim jarayoniga tatbiq etish, o‘quv muassasalarini zamonaviy pedagogik kommunikatsiya vositalari bilan ta’minlash, ta’lim sifatini oshirishga alohida e’tibor qaratish zarur”, deb ta’kidlangan edi. Bu vazifalarni samarali amalga oshirish umumta’lim maktablarida musiqa o‘qitish tizimini yanada rivojlantirish uslublarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Musiqa madaniyati darslarining ***maqsadi*** yosh avlodni milliy musiqa merosini o‘zlashtira olgan hamda jahon musiqa san’atini idrok eta oladigan keng dunyoqarashga ega shaxs qilib shakllantirishdir.

Musiqa yosh avlodning ma’naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g‘urur, vatanparvarlik, nafosat va ijodkorlik tarbiyasini amalga oshirishga, dunyoqarashini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni o‘stirishga xizmat qiladi.

Musiqaning juda katta tarbiyaviy imkoniyatlari o‘qituvchining jiddiy kasbiy tayyorgarligi, o‘quvchi shaxsiga hamda uning musiqiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratgan doimiy e’tibori asosida yuzaga chiqadi. Musiqa o‘qitishning samarasini belgilovchi muhim omillardan biri musiqiy metodik masalalarning nazariy jihatdan ishlab chiqilganligi va uning amaliyot bilan bog‘liqligi darajasidir.

Insonning shaxs sifatida shakllanishida musiqa san’atining beqiyos ahamiyatini, uning ruhiyat bilan bog‘liqligini allomalar doimo ta’kidlab kelganlar. O‘zbek she’riyatining dahosi Alisher Navoiy o‘z nasriy asarlarining birida bu haqda ajoyib fikrlarni bildiradi: “shodlikni oshiruvchi xonanda, g‘amni tarqatuvchi sozanda, bularning har ikkisiga hissiyotli kishilar va ahli dardlar jon fido qilarlar. Ular muloyim tarona bilan kuylar ekanlar, eshituvchilarning naqd hayoti kuyga fido bo‘lsa ne ajab? Axir, ko‘ngil xush ohangdan quvvat, ruh esa xush ovozdan oziq oladi”.

Umid qilamizki, mazkur qo‘llanma ham uzoq yillar davomida musiqa madaniyati fani o‘qituvchisi uchun metodik jihatdan muhim yordamchi bo‘lib qoladi va kelajagimiz bo‘lgan yosh avlodni milliy musiqamiz, sa’natimizga munosib voris qilib tarbiyalashda o‘z hissasini qo‘shadi.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

O‘QUV MAJMUA HAQIDA

Majmua tarkibiga kirgan darslik, metodik qo‘llanma, mashq daftari hamda ularning mazmuni va tuzilishi nafaqat o‘quvchilarning asosiy bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishga, balki o‘quvchilarda fanga barqaror qiziqishni rivojlantirish, muhim hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan. Qo‘llanma o‘quvchilarga musiqiy san’at xususiyatlarini yetkazish yo‘llarini topishga, ularga hayotning musiqiy obrazlarda aks etishi, musiqiy ifoda vositalarining ahamiyatini tushuntirishda, musiqiy asarlarning badiiy tahlili metodlari va texnologiyalarini aniqlashda yordam beradi. Musiqa tarixi, musiqadagi uslub va janrlarning rivojlanishi, kompozitorlarning o‘ziga xos ijod yo‘li haqidagi bilimlar maktab o‘quvchilarining musiqiy didini tarbiyalash, ularning dunyoqarashini kengaytirishga asos bo‘ladi.

Musiqa hayotni aks ettirishi, hayot bilan bog‘liqligi, uning musiqa ijodkori, ijrochisi va tinglovchisining hayotiy qarashlariga bog‘liqligi musiqani tarbiya vositasiga aylantiradi. Musiqiy tarbiya jarayonida o‘quvchida axloqiy, aqliy, estetik, jismoniy sifatlar tarkib topadi.

Majmuaning yaratilishi, ya’ni o‘quv majmua to‘liq jamlangan holda o‘qituvchi uchun qo‘llanma, darslik va mashq daftari ko‘rinishida nashr qilinishi o‘qituvchi hamda o‘quvchilar faoliyatini ta’lim jarayonida to‘liq tasavvur etish ushbu aloqani yuzaga chiqarishga imkon beradi. O‘qituvchi darsga lozim bo‘lgan musiqiy materialni tanlashi va tahlil qilishi, ularning emotsional ta’sirchanligini aniqlash; yosh va individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda bolalarda musiqa idroki xususiyatlarini o‘rganishi, ish metodlarini o‘rganishi; o‘z ishining natijalarini tahlil qilishi hamda musiqiy va metodik adabiyotlar bilan ishlashi, ya’ni darsni aniq rejalashtirish orqali olib borishi o‘quvchini o‘quv materialini o‘zlashtirishi, olingan bilimlarni amalda mustaqil qo‘llay olishi unda yangi materiallarni izlab topishga intilishni shakllantiradi va bu orqali faol ta’lim olishni ta’minlaydi.

O‘quv majmuasida musiqa madaniyati fani bo‘yicha o‘quv dasturida ko‘zda tutilgan ta’lim standartlarining amalga oshirilishi, bilimlarning aniq va lo‘nda bayon etilishi, ko‘rgazmalilik, zamonaviy AT vositalaridan foydalanish, dizayn jihatidan yangicha yondashuvga erishishga alohida e’tibor qaratildi. Darsliklardan bir necha yillar davomida foydalanish ko‘zda tutilgani bois topshiriqlarni bajarish uchun alohida mashq daftari ishlab chiqilgan.

Darslik va metodik qo‘llanma musiqa madaniyati darsini tashkil qiluvchi musiqiy faoliyatlarga muvofiq ishlab chiqilgan, bular:

– musiqa tinglash;
– jamoa bo‘lib kuylash;
– musiqa savodi;
– bolalar cholg‘ularida jo‘r bo‘lish kabi faoliyatlardir.

Har bir darsning musiqiy materiali bevosita matn ko‘rinishida va **VR, QR** kodli ilovalar yordamida aks ettiriladi. Bunga muvofiq ishlab chiqilgan o‘qituvchi uchun qo‘llanmadagi materiallarda mavzular bo‘yicha o‘qituvchi uchun qo‘shimcha ma’lumotlar, musiqiy faoliyatlarda amalga oshirilishi uchun tavsiya qilingan usul va metodlar, ularni

tashkil qilish, o‘tkazish yo‘llari, o‘quvchilarning mustaqil faoliyatlarini tashkil qilishga oid tavsiyalar hamda har bir dars bo‘yicha o‘quvchilarni baholash mezonlari kiritilgan.

Mashq daftari o‘quvchilarning mustaqil faoliyatlarini tashkil qilish, darslarda olingan bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash, mavzuga, umuman, fanga bo‘lgan qiziqishlarini orttirishiga xizmat qiladi.

Majmua tarkibiga kirgan har uchala nashr bir-birini uzviy davom ettiradi va to‘ldiradi, o‘qituvchining ishini yengillashtirib, unga o‘z ustida ishlashi, pedagogik va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishi, darslarni qiziqarli tashkil qilishiga imkon beradi.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, musiqa tinglash va kuylash faoliyatlarini qiziqarli tashkil qilish, darsda yangraydigan musiqiy namunalarning sifatini ta’minlash, vaqtni tejash, o‘quvchilarning e’tiborini to‘liq dars mavzusi va mazmuniga jamlashga xizmat qilishi ko‘zda tutilgan VR, QR kodli ilovalar o‘qituvchining jonli ijrosi o‘rnini bosa olmaydi. Cholg‘u sozida chalish musiqa madaniyati fani o‘qituvchisi uchun birinchi navbatdagi talab bo‘lib qoladi. O‘qituvchining musiqa ta’limi va tarbiyasini amalga oshirishda yangi usul va vositalarni izlashi, ularni an’anaviy va innovatsion usullar bilan mohirona bog‘lab olib borishi, hayot va musiqa san’ati o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsata olishi va o‘rgatishi, musiqaning mazmuni va ma’nosini bolalarga yetkazishda fanlararo aloqani amalga oshirishi,musiqa o‘qituvchisi o‘z ustida doimo ishlashi va ijodiy izlanishida bo‘lishi uning ijodiy faoliyati va pedagogik mahoratini namoyon qiladi.O‘qituvchining yuqori professional tayyorgarligi musiqa darslarining takomillashuvida hamda musiqa san’atining tarbiyaviy potensialini amalga oshirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Metodik qo‘llanmaga darslikdagi ketma-ketlikda tartiblangan kuy va qo‘shiqlarning nota matnlari kiritilgan bo‘lib,ular namunalarni tahlil qilish, ovoz sozlash mashqlarini o‘tkazish, qo‘shiq ustida ishlashda o‘qituvchiga katta ko‘mak beradi.

3-sinf darsligi doirasida mavzular bo‘yicha matn ko‘rinishidagi materiallar mazmun jihatidan bolalarning yosh xususiyatlariga muvofiq ishlab chiqilgan. Mavzular choraklar kesimidagi bo‘limlarga ajratilgan, bo‘lim va uning tarkibiga kirgan mavzular alohida ranglar bilan ajratilgan. Mavzu, kuy va qo‘shiqlarga illyustratsiya shaklida ishlangan rasmlar to‘liq yangilangan. Rasmlarning mavzu, kuy va qo‘shiq mazmunini ochib berishiga alohida e’tibor qaratilgan.

Musiqa tinglash va kuylash faoliyatlari uchun tanlangan asarlarni musiqiy, badiiy va estetik jihatdan idrok etish, o‘quvchilarning tinglovchilik malakalarini shakllantirish bilan birga ularni boshlang‘ich sinflardan boshlab musiqiy savodxonlikka o‘rgatishga xizmat qiladi. Shuning uchun kuy va qo‘shiqlarning nota matnidagi turli uzunlikdagi notalarga muvofiq cho‘zimdagi turli belgilar (doiracha, chiziqcha va h.k.) shaklida ifodalangan sxemasi ishlab chiqilgan. Bu shakldagi sxemalar o‘quvchilarni darslarda tinglangan va kuylangan asarni ritmik jihatdan o‘zlashtirish, ritmni his qilish, to‘g‘ri va aniq ijro etishga o‘rgatish bilan bir qatorda izlanish, tahlil qilish, taqqoslash, musiqa ifoda vositalarini ongli o‘zlashtirishga yordam beradi, o‘quvchilarda asarga o‘z munosabatini bildira olish malakasini shakllantiradi.

QO‘LLANMA HAQIDA

O‘qituvchi uchun metodik qo‘llanma darslikda berilgan kuy, qo‘shiq, musiqiy- nazariy materiallar va boshqalar ustida qanday ishlash, ularni o‘quvchiga qaysi shaklda yetkazib berish, nimalarga ko‘proq e’tibor qaratish, berilgan namunalardan qanday foydalanishga oid metodik tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.



3-SINFDA MUSIQA MADANIYATI DARSLARINI TASHKIL ETISH YUZASIDAN METODIK TAVSIYALAR

Musiqa madaniyati darslari boshqa maktab fanlaridan o‘zining badiiyligi, bolalarda emotsional tuyg‘u va kechinmalar uyg‘otishi bilan ajralib turadi. Musiqa, ayniqsa, bolalarning aqliy va axloqiy rivojiga katta ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ijobiy his-tuyg‘u insonning aqliy faoliyatini o‘stiradi. Fiziologlarning aytishicha, bola aqliy rivojining kaliti uning hissiyoti sohasida turadi. Musiqa mashg‘ulotlari bolalarning badiiy qobiliyatlarini rivojlantirib, ularda ijodiy kuch, tasavvur, fantaziyani uyg‘otadi. Qadimdan ma’lumki, badiiy ijodiy tasavvur bilan ilmiy fikrlash o‘rtasida katta bog‘liqlik bor. Adabiyotshunos V. Belinskiy aytganidek: “Ilm va san’at mazmuni bir. Olim fikrlar tizimi asosida ishontiradi, ijodkor – obrazlar bilan. Ammo ikkalasi ham bir xil ishontiradi”.

Musiqiy asardan olingan emotsional ta’sir o‘qituvchining ifodali ijrosi, mimika, harakat, so‘z orqali yanada kuchayadi. Butun dars musiqa bilan “sug‘orilgan” bo‘lishi lozim. **Musiqa-bolalar-o‘qituvchi** darsning asosiy bo‘g‘inlaridir.

Musiqa insonga o‘zining ifoda vositalari – ohang, lad, metro-ritm, temp, dinamika, registr, faktura, ko‘povozlik, shakl, garmoniya kabi “bo‘yoqlari” uyg‘unligida ta’sir etadi. Bu ifoda vositalari asarning kayfiyati, go‘zalligi, mazmuni va g‘oyasini tinglovchiga yetkazib beradi. Musiqa insonga ta’sir etar ekan, uni quvontiradi, hayajonlantiradi, o‘ziga qiziqish uyg‘otadi. Inson tuyg‘ularining barcha ko‘rinishlari – quvonch va qayg‘u, baxt va dard-alam musiqada aks etishini bolalar eshitishlari, anglashlari va his etishlari uchun o‘qituvchi barcha shart-sharoitlarni yaratadi, bolalarning musiqa bilan muloqoti quvonchli bo‘lishi uchun turli vositalardan foydalanadi.

Bu esa ko‘proq darsda qo‘llaniladigan musiqiy asarlarga bog‘liq.

3-sinfda musiqa tinglash faoliyatida musiqa madaniyati darslari doirasida o‘zbek musiqasi, qisman jahon musiqasi namunalari va o‘zbek kompozitorlari ijodidan asarlar o‘rganilishi nazarda tutilgan. Bular – *O‘zbekistan Respublikasi madhiyasi (A. Oripov she’ri. M. Burhonov musiqasi), “Marsh” (N. Norxo‘jayev musiqasi), “Jek va Jil” (ingliz xalq qo‘shig‘i), “Soat” (R.Tolib she’ri, N. Norxo‘jayev musiqasi), “Salom, quyosh” (R. Tolib she’ri, N. Norxo‘jayev musiqasi), “Andante” (Y. Gaydn, “Syurpriz” simfoniyasining 2-qismidan parcha), “Marsh” (D. Omonullayeva musiqasi), “O‘rdakchalar raqsi” (fransuz xalq qo‘shig‘i), “Oymoma” (M. Tojiboyev Navo maqomi ohanglari asosida yaratgan), “Katta bug‘u” (fransuz xalq qo‘shig‘i. N. Selivestorova moslashtirgan), “Usmoniya” (o‘zbek xalq kuyi), “Buvijon” (K. Turdiyeva she’ri, N.Qurbonova musiqasi), “Do‘ppi tikdim” (T. To‘la she’ri, M. Burhonov musiqasi) va h.k.* Asarlar ro‘yxatiga e’tibor bersak, unda musiqa janrlari ma’lum bir tizimga keltirilmaganining guvohi bo‘lamiz. Shunga qaramasdan, musiqa haqidagi boshlang‘ich bilimlar mustahkamlanadi, musiqiy asarlarni tinglab idrok etish, bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish hamda olingan bilim, egallangan ko‘nikma va malakalarni hayotda qo‘llay olish layoqati – kompetensiyani shakllantirish ko‘zda tutilgan. Asarlar badiiy qiymatga ega bo‘lishi, obrazli, qiziqarli,

mazmunan bolalarga yaqin, tili jihatdan mos bo‘lishi, bolalar ehtiyojlariga javob berishi kerak. Shu bilan birga, o‘quvchilarga tinglash uchun musiqiy material havola etilayotganda ularning tinglash diqqati hajmi e’tiborga olinishi lozim. Uchinchi-to‘rtinchi sinf o‘quvchilari 4–4,5 minut jaranglaydigan musiqiy obrazni idrok etib, asar tinglay oladilar.

3-sinfda jamoa bo‘lib kuylash. Musiqiy asarni badiiy va ifodali ijro etish uchun ma’lum bir malaka va ko‘nikmalar talab etiladi. Masalan, qo‘shiqni o‘rganish jarayonida 3-sinf o‘quvchilarida vokal-xor malakalari shakllantiriladi. Bola qo‘shiq ijro etar ekan, unda his-hayajon, zavq-shavq, ko‘tarinkilik, quvnoqlik, harakatchanlik kabi ijobiy tuyg‘ular hosil bo‘ladi. Qo‘shiqda ikkita estetik vosita – musiqa va badiiy so‘z birlashadi. Shuning uchun tajribali o‘qituvchining qo‘lida jamoa bo‘lib kuylash o‘quvchilarni musiqiy-estetik tarbiyalashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Musiqa madaniyati darslarida har bir chorakda 4–5 tadan qo‘shiq o‘rganish ko‘rsatilgan. Kuylash jarayonida o‘quvchilarda ovoz apparati rivojlanadi, nafas chuqurlashadi, qon aylanishi yaxshilanadi, qomat tekislanadi, ya’ni bola jismonan ham rivojlanadi. Bolaning yoshi o‘sishi bilan birga ovoz apparati mexanizmi ham o‘sib boradi. 9 yoshda qiz va o‘g‘il bolalar ovozida farq bo‘lmaydi. Har bir o‘qituvchi bolalarni qo‘shiq aytishga o‘rgatar ekan, ularni qo‘shiqni bolalarga xos go‘zal, jaranglagan, tiniq tovush bilan zo‘riqmasdan, tezda charchab qolmasdan, erkin aytadigan qilib tarbiyalashga urinishi lozim.



3-sinfda musiqa savodi faoliyati oldingi sinflarda olingan mavzularni chuqurlashtirishga qaratilgan. O‘quvchilar *takt, pauza, nota va ularning cho‘zimlari (chorak-tali, yarimtali, butun), o‘lchovlar (3/4, 4/4) takt chizig‘i, musiqaning ifoda vositalari, temp atamalari, torli chang cholg‘usi, kompozitor* haqidagi yangi musiqiy bilim va tasavvurlarni egallaydilar. Bu bilimlar alohida emas, balki kuylash va tinglashga berilgan asarlarni o‘rganish bilan uzviy ravishda bog‘lanib o‘tilishi juda zarur. Masalan, musiqada pauza nima uchun kerak, asar ijrosida tempning, o‘lchovlarning ahamiyati nimada ekanligini ko‘rsatib berish o‘qituvchidan asarlarga musiqiy-pedagogik tahlil nuqtayi nazaridan yondashuvni talab etadi.

3-sinfda musiqa ijodkorligi faoliyatida o‘quvchilar bolalar cholg‘ularida ijro etish, musiqiy-ritmik harakatlar qilish, plastik harakatlarning eng oddiy usul va yo‘llarini egallashlari lozim. Bunda ijrochilik malakalari badiiy vazifalarga, ya’ni musiqiy asar obrazi, kayfiyatining yorqin, ifodali yoritilishiga qaratilgan bo‘lishi talab etiladi. Bunda musiqiy asarning badiiy ijrosiga erishish ***maqsad*** bo‘lib, malaka va ko‘nikmalarni egallash shu maqsadga yetishishda ***vositadir.*** Ularda musiqiylik, ijodiylik qobiliyatlari rivojlanadi, jamoa bo‘lib harakat qilish malakalari shakllanadi. Musiqaga mos harakat bajarish bilan ritm hissi faollashadi, musiqiy materialni o‘zlashtirishi chuqurlashadi. Harakatlarni bajarish musiqiy obraz rivojini kuzatishga yordam beradi.

Musiqa madaniyati fanining asosiy tushunchalari **tarbiya, ta’lim, rivojlantirish** va ularning o‘zaro bog‘liqligidir.

Tarbiya. Pedagogikada tarbiya deganda bolalar, o‘smirlar, yoshlarning jismoniy, ma’naviy kuchlarini rivojlantirish, ularning dunyoqarashini shakllantirish tushuniladi.

Hayotni aks ettirishi, hayot bilan bog‘liqligi, musiqa ijodkori, ijrochisi va tinglovchisining hayotiy qarashlariga bog‘liqligi musiqani tarbiya vositasiga aylantiradi. Musiqiy tarbiya jarayonida o‘quvchida axloqiy, aqliy, estetik va jismoniy sifatlar tarkib topadi.

Ta’lim bilimlar majmuasini o‘zlashtirish jarayonidir. Xususan, musiqiy ta’lim o‘quvchilarni turli musiqiy faoliyatlarga o‘rgatish, ularda musiqiy tasavvur, bilim, malaka va ko‘nikmalar hosil qilish, bu bilimlarning o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi jarayonidir.

Rivojlantirish – eng oddiy, sodda musiqiylik ko‘rinishlaridan murakkablariga qarab takomillashish. Boshqacha aytganda, musiqiy qobiliyatlarning o‘sishi va shakllanishi jarayoni rivojlanishni hosil qiladi.

O‘quvchilarga musiqiy ta’lim berish, ularni tarbiyalash va rivojlantirish ishlari yaxlitlikda olib borilishi musiqa pedagogikasining eng muhim qonuniyatlaridir.

I BOB. MUSIQADA PAUZALAR

1-DARS. MUSTAQILLIGIMIZNI KUYLAYMIZ

Standart talablari. O‘quvchi madhiyani, Vatanni tarannum etish mohiyatini tushunadi, takt, kuchli va kuchsiz hissalar haqida tasavvurga ega bo‘ladi**.**

O‘quvchilar darslik va undan foydalanish qoidalari bilan tanishadilar. Shundan so‘ng “Aqliy hujum” metodidan foydalanib, 2-sinfda o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni aniqlashtirib olish mumkin. Bunda boshqa fanlar bilan integratsiyalashga e’tibor qaratish lozim. “Aqliy hujum” bilan bir vaqtning o‘zida diagnostik baholashni amalga oshirish tavsiya etiladi.

Mustaqillik bayramimizning nishonlanishi, madhiya nima ekani, “madhiya” so‘zining ma’nosi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi va uning mualliflari haqida suhbat o‘tkaziladi. “Davlatimiz ramzi bo‘lgan madhiyamizni qanday holatda ijro etamiz? Nima uchun?” savollaridan foydalaniladi.

Jamoa bo‘lib kuylash

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MADHIYASI

A. Oripov she’ri
M. Burhonov musiqasi




o'l - kam, el - ga baxt, na - jot, Sen o'-
ff
zing do'st - lar - ga yo'l - dosh, meh - ri - bon! Meh - ri -
bon! Yash - na - gay to a - bad il -
p


- m-u fan, i - jod,
Shuh - ra - ting por - la -
sin to - ki bor ja - hon!
Ol - - - tin bu vo - diy - lar
Ol - - - tin bu vo - diy - lar


jon O'z - be - kis - ton, Aj - dod -
lar mar - do - na ru - hi sen - ga yor! U - lug'
xalq qud - ra - ti jo'sh ur - gan za - mon, O - lam -
1.
ni mah - li - yo ay - la - gan di - yor! Bag' - ri



Serquyosh, hur o‘lkam, elga baxt, najot,
Sen o‘zing do‘stlarga yo‘ldosh, mehribon!
Yashnagay to abad ilm-u fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

Oltin bu vodiylar — jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag‘ri keng o‘zbekning o‘chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo‘r qanot!
Istiqlol mash’ali, tinchlik posboni,
Haqsevar, ona yurt, mangu bo‘l obod!

Oltin bu vodiylar — jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!



O‘zbekiston madhiyasini kuylashga o‘rgatish – mas’uliyatli jarayon. O‘qituvchidan vokal va fortepiano (cholg‘u) ijrochiligi malakalari talab etiladi. Bu asarning aytim qismi ham, jo‘rnavozlik qismi ham ko‘povozli musiqaning yorqin namunasidir. Asar xarakteridagi tantanavorlik, ulug‘vorlik, mardonavorlik kayfiyati kompozitor tomonidan zalvorli marshonalik uslubida bayon etilgan. Asar diapazoni 1,5 oktava (re1-sol2) oralig‘ida. 3-sinf o‘quvchilari uchun bu juda murakkab. O‘quvchilar ovozini charchatib, zo‘riqtirib qo‘ymaslik uchun o‘qituvchi madhiya ijrosida o‘ta e’tiborli bo‘lishi kerak. Buning uchun quyidagicha ish olib boriladi:

1. Asar jumlalarga bo‘lib o‘rgatiladi.
2. Madhiyani yoqimli ovozda, olingan nafasni jumla oxiriga yetkazib, uzun tovushlarni cho‘zib, osoyishta ijro etish malakasi ustida ishlanadi.
3. Notada berilgan **divizi** (2 ovozga bo‘linish) joylarida o‘qituvchi bolalarga pastki ovozni o‘rgatadi.
4. O‘rganilgandan so‘ng, o‘qituvchi bolalar bilan birgalikda kuylay boshlaydi. Ikki ovozga ayriladigan joylarda (notada berilgan) o‘qituvchi 1-baland ovozni, o‘quvchilar 2-ovoz partiyasini kuylaydilar.

To‘g‘ri yo‘nalishda ish olib borish bolalarda Vatanni ulug‘lashda daxldorlik tuyg‘usi, madhiyamizdan faxrlanish hislarini o‘stiradi, birdamlik tuyg‘ularini uyg‘otadi. Madhiya kuylashning asl maqsadi ham shunda!

Metodik tavsiyalar: o‘quvchilarni musiqa san’atiga faol jalb etishning eng ommaviy shakli **jamoa bo‘lib kuylashdir.** Kuylash bola uchun estetik ehtiyoj, hissiyot va kayfiyatni ifodalashning eng tabiiy va qulay vositasidir. Bola qo‘shiq ijro etar ekan, unda his-hayajon, zavq-shavq, ko‘tarinkilik, quvnoqlik, harakatchanlik kabi ijobiy tuyg‘ular hosil bo‘ladi.

Qo‘shiq kuylash faoliyati o‘quvchilarda melodik, garmonik eshituv, ladni his etish, sof intonatsiya kabi musiqiy qobiliyatlarni rivojlantiradi. Ijro jarayonida ovozi va musiqiy eshituvi turlicha bo‘lgan bolalar jamoa bo‘lib birlashadilar ularda o‘z ijrolarini va o‘rtoqlari ijrolarini eshitib kuzatish, birgalikda kuylashdan zavqlanish, diqqat, kuzatuvchanlik, intizom kabi sifatlar tarbiyalanadi. Kuylash jarayonida o‘quvchilarda ovoz apparati rivojlanadi, nafas chuqurlashadi, qon aylanishi yaxshilanadi, qomat tekislanadi, ya’ni jismonan ham rivojlanish kuzatiladi.

Kuylash faoliyati bir qator vazifalarni hal etishni nazarda tutadi:

– bolalarda jamoa bo‘lib kuylashga qiziqish va muhabbatni o‘stirish;
– musiqaga hissiy ta’sirchanlikni tarbiyalash;
– badiiy didni tarbiyalash;
– qo‘shiqchilik ovozini, ya’ni chiroyli, tabiiy tovushda kuylashni shakllantirish, diapazonni o‘stirish;
– badiiy ijroga erishish uchun vokal-xor malakalarini rivojlantirish;
– musiqiy qobiliyatlarni o‘stirish.

Ovoz sozlash mashqlari bolalarni jamoa bo‘lib kuylashga o‘rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ovoz sozlash mashqlarining maqsadi – qo‘shiqchilik malakalarini shakllantirish, bolalar ovozini, diapazonni, musiqiy eshituvni rivojlantirish.

Ovoz saqlash mashqlarini **ikki guruhga** bo‘lish mumkin.

1. Birinchi guruhga aniq bir qo‘shiq bilan bog‘liq bo‘lmagan mashqlar kiradi. Bunday mashqlar bolalarga davomiy ravishda vokal-xor ijrochiligi malakalari, badiiy ijrochilik mahoratini egallashga yordam beradi. Bu guruhdagi ovoz sozlash mashqlari har bir darsda butun o‘quv yili davomida qo‘shiq o‘rgatishga o‘tishdan oldin qo‘llanadi.

2. Ikkinchi guruhdagi mashqlar aniq bir qo‘shiqni o‘rganishda uchraydigan qiyinchiliklarni (intonatsion, ritmik, diksion, temp) bartaraf etishga qaratilgan. Tabiiyki, qo‘shiqdagi murakkab joylar ovoz sozlash mashqi sifatida bir necha bor qaytarishlar asosida yaxshi o‘zlashtiriladi.

3. Mashqlarni kuylashda o‘quv vazifalari oddiydan murakkabga qarab o‘zgarib boradi.

4. 3-sinfdan boshlab bolalarda mashqlarga ongli munosabatni tarbiyalash muhimdir. Ularga ovoz sozlashning muhimligi, ya’ni ovozlarni ish holatiga keltirish lozimligi tushuntirib boriladi. Bolalarga yoqadigan, qiziqish uyg‘otadigan mashqlar qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Bunday mashqlar sifatida tinglash uchun olinadigan asarlardan fragmentlar (N. Norxo‘jayev “Marsh”i, ingliz xalq qo‘shig‘i “Jek va Jil”, D. Omonullayeva “Marsh”i, M. Tojiboyev “Oymoma” asari va h.k.), o‘rganish uchun olinadigan qo‘shiqlardan parchalar kuylatish mumkin.

5. Darsda qo‘llanadigan ovoz sozlash mashqlari kuylash uchun qulay bo‘lishi, davomli ravishda o‘zlashtirilishi maqsadga muvofiq.

MASHQ KUYLASH

1-guruhga xos




2-guruhga xos



MUSIQA SAVODI: TAKRORLASH

MUSIQADA TAKTLAR





Taktlarda **kuchli** va **kuchsiz** hissalar almashib boradi.


2/4 o'lchovidagi taktda birinchisi kuchli, ikkinchisi kuchsiz; 3/4 o'lchovidagi taktlarda birinchisi kuchli, ikkinchi va uchinchi hissalari kuchsiz.



Yuqoridagi misolda har gal keladigan kuchli hissadan oldin takt chizig'i qo'yiladi (qizil rang bilan kuchli hissa ko'rsatilgan).

Repriza belgisi. Repriza “qaytalanish”, “qaytarish” ma’nolarini anglatadi. Repriza belgisi musiqa qismining aynan takrorlanishini anglatadi.





VAZIFA: nota daftarida repriza belgisini, taktlar belgilarini yozishni mashq qilish.

Atamalar lug‘ati

Alla – o‘zbek musiqa san’atida keng tarqalgan janr. Alla nafaqat kundalik hayotda, balki kompozitorlik ijodiyotida ham alohida o‘ringa ega. Allalar mayin ohanglarda ijro etiladi.

Ashula – asosan lirik ruhdagi g‘azal va she’rlar zaminida yuzaga kelgan. Ashula qo‘shiq janridan kuy diapazonining kengligi, shaklan rivojlangani, mavzu va mazmuni teranligi bilan farqlanadi.


Xor ko‘rinishi – xor asarlari xor turidan tashqari ovozlar soni bilan ham ajralib turadi. Asarlar ikki, uch, to‘rt va undan ko‘p ovozlar uchun yozilgan bo‘lishi mumkin. Bu jihat **xor asarining ko‘rinishi** deyiladi.

Diapazon – hamma ovoz, soz yoki jamoa, xususan, xorning eng pastidan eng balandigacha bo‘lgan tovushlari hajmi.

Divizi – xor partiyalarining ikki-uch va undan ortiq ovozlarga vaqtinchalik bo‘linishi. Asosiy partiyalarning qo‘shimcha bo‘linishi ***doimiy*** (butun asar davomida) va ***vaqtincha*** (asarning ma’lum bir epizodlarida) bo‘lishi mumkin.

2–3-DARSLAR. PAUZALAR HAQIDA TUSHUNCHA

Musiqada tovush jarangi to‘xtagan joyiga “Pauza” (“tinish” ma’nosini anglatadi) belgisi qo‘yiladi. Pauzalar ham notalar kabi o‘z cho‘zimiga ega bo‘ladi.



Nota cho‘zimlariga mos keluvchi pauzular ham maxsus belgilar bilan ifodalanadi. Pauzalar musiqiy tovushlarni bir-biridan ajratish hamda kuyni bezash uchun qo‘llanadi. Adabiy nutqda tinish belgilari qanday vazifani bajarsa, musiqada ham pauzalar shunday vazifani bajaradi: tin olish va yangi nafasda keyingi jumlalarga o‘tishga imkon beradi. Yuqoridagi sxemada keng tarqalgan nota cho‘zimlari hamda ularga mos keluvchi, ya’ni o‘shanday cho‘zimdagi notalar keltirilgan.

Butun pauza butun notaga teng bo‘lganida shunday yoziladi:



Musiqa tinglash

MARSH

N. Norxo‘jayev musiqasi



Marsh kuyini bolalarga tinglatish. Marsh asarini tinglash va idrok etish orqali o‘quvchilarning marsh janri haqidagi bilimlari chuqurlashadi. Tinglashdan oldin o‘qituvchi o‘quvchilarga taniqli kompozitor N. Norxo‘jayev va uning hayoti va ijod yo‘li haqida qisqacha ma’lumot beradi. O‘qituvchi taklifiga ko‘ra, bolalar o‘zlariga tanish bo‘lgan bir necha marsh asarlarini eslaydilar (F. Nazarovning “Yurish marshi”, “Usmoniya” xalq kuyi, P. Chaykovskiyning “Yog‘och askarchalar marshi” va h.k.). Bolalar marsh musiqasi asosan shaxdam, harakatchan, quvnoq bo‘lib, qadam tashlab yurish uchun qulayligini anglaydilar.

N. Norxo‘jayevning “Marsh” asarini tinglab, bolalar bu asarning yorqin, bayramona, mardona xarakterdaligini, tempi chaqqon, shaxdam ekanligini, ohangdagi shodonlik bu asarni boshqa marshlardan ajratib turishini bilib oladilar.

O‘qituvchining “Musiqaning qanday vositalari asarga shodonlik ruhini beradi?” degan savoliga bolalar: “Major ladi, fortepianoda asosiy kuyga pastki tovushlardagi “quyuq” jo‘rnavozlik, ohang ritmidagi keskinlik, jarangdorlik”, deb javob beradilar (o‘quvchilar javob berishga qiynalishsa, o‘qituvchi yo‘naltiradi).

MARSH JANRINING TURLARI



Jamoa bo‘lib kuylash

SALOM, MAKTAB

E. Rahimov she’ri
J. Najmiddinov musiqasi



Salom, maktab, jon maktab,
Seni sevaman maqtab.
Bizga ochiq quchog‘ing,
Yoningda gulzor-bog‘ing.

Qalam, ruchkam bor, mana,
Yozaman dona-dona.
Xatim bo‘lsin chiroyli,
Kulib tursin naq oydak.

Mana, qo‘limda kitob,
O‘qish kitob ham hisob.
Sharillatib o‘qiyman,
Bilag‘on bo‘lay deyman.

Salom maktab, jon maktab,
Qo‘shiq aytaman maqtab.
Men ham belcha ushlayman,
Gul bog‘ingda ishlayman.

Yangi o‘rganilayotgan qo‘shiq haqida o‘qituvchi kirish so‘zi aytadi. Bunda kompozitorning ijodi haqida qisqa ma’lumot berishi, qo‘shiq nomi, mazmuni doirasida badiiy tayyorlov suhbati o‘tkazishi mumkin. Kirish so‘zi cho‘zilib ketmasligi lozim. O‘qituvchining kirish so‘zi ham, ijrosi ham, suhbati ham o‘quvchilarda tanishtirilayotgan qo‘shiqni o‘rganishga qiziqish uyg‘otishi, ularni faollashtirishi, qo‘shiq haqida o‘z fikrlarini aytishga undashi lozim.


Bu qo‘shiq musiqiy “tili” bayoni jihatidan juda sodda va oddiy qo‘shiqdir. 3-sinf o‘quvchilari uchun ancha jo‘n asar. Bu asar bir dars davomida bolalar bilan o‘rganib qo‘yilishi mumkin. Diapazoni ***katta seksta*** hajmida. Tessitura jihatidan qulay[1]. Qo‘shiq matnida liga bilan bog‘langan ikki o‘n oltitalik nota keladigan joy – **“Se- ni-i“** (ya’ni bir bo‘g‘inga ikkita nota keladi) alohida “ta-ta” bo‘g‘inlari bilan mashq holida kuylanib olinsa, qo‘shiq ijrosi paytida qiyinchilik tug‘dirmaydi.

[1] **Tessitura** – *diapazonning bir qismi. Inson ovozi diapazoni 3 qismga bo‘linadi (bu haqida ko‘pgina nazariy-metodik adabiyotlardan ma’lumot olish mumkin).*

Qo‘shiqning asosiy g‘oya-mazmuni – go‘zal bolalik, sevimli maktab quchog‘iga ta’tildan so‘ng qaytish zavqi.

Qo‘shiq 2 ta to‘rt taktli musiqiy jumladan iborat. Shakli oddiy “davriya”dan iborat. Kuylashda sof intonatsiyaga, legatoga hamda nafasni to‘g‘ri olishga erishish zaruriy vazifalardan. Kuylashning asosi unli tovushlardir. Shuning uchun qo‘shiq kuylashda vokal talaffuzga erishish lozim **(salo-m, makta-b, jo-n, qucho-g‘ing).** Ya’ni yopiq bo‘g‘inlardagi oxirgi undosh tovush keyingi bo‘g‘in boshiga ko‘chirib kuylanadi.

Metodik tavsiyalar: *qo‘shiq odatda jumlalarga bo‘lib o‘rgatiladi. Har bir jumlaning kuyini avval o‘qituvchi, keyin sinf ijro etadi. Ba’zida jumlalarni, ijroda qiyin joylarni bir necha bor qaytarishga to‘g‘ri keladi. Shunda bolalarni charchatib qo‘ymaslik uchun o‘qituvchi turli usullardan foydalanadi: alohida jumlalarni butun sinf bo‘lib, guruhga bo‘linib, yakka ijro etish; cholg‘u jo‘rligida va jo‘rsiz kuylash; o‘qituvchi bilan dialog tarzida mustaqil kuylash; bo‘g‘inlarga bo‘lib kuylash, so‘zlari bilan, “dilda” kuylash va h.k. “Dilda” kuylash o‘quvchilarning ichki musiqiy eshituvini o‘stiradi, ovoz va eshituv orasidagi mutanosiblikni yaxshilaydi*.




4–5-DARSLAR. YARIMTALIK PAUZALAR

Yarimtalik pauza yarimtalik notaga teng bo‘ladi. Yarimtalik pauza mana bunday yoziladi:




NAMUNA



Yuqoridagi namunadan yarimtalik pauzani topib sanaymiz.

Bolalarga beriladigan maslahat. Ko‘pgina bolalar ancha payt butun pauzani yarimtalik pauza bilan adashtiradilar. Shunda bir usulni qo‘llash mumkin. Eslab qoling, yarimtalik pauza nota chiziqlari o‘rtadan bo‘linadigan joyda – uchinchi chiziqda joylashadi (namunaga qarang). Ikkilangan paytingizda shu joylashuvni eslasangiz bo‘ldi. Javobni darrov topasiz.



AYTIM MASHQLARI



Bu yuqoridagi mashqni kuylashda ***“Buyruqlar”*** texnikasini qo‘llash mumkin (diqqat uchun maxsus mashqlar). **Maqsad shu:** bolalar o‘z diqqatlarini “buyruqlarda” jamlab, o‘zlaridan talab qilinayotgan harakatlarni chaqqonlik bilan bajaradilar. Taniqli bolalar xormeysteri G. Struve bunda ***“Aks sado”*** mashqini qo‘llagan. O‘qituvchi chapak bilan ko‘rsatgan ritmik usuliga bolalar aks sado tarzida shu ritmik usulni chapak bilan qaytaradilar. **“Jimlik soniyalari”** texnikasi. Bunda o‘quvchilar kuylash jarayonida o‘qituvchi signali bo‘yicha (kutilmaganda plakatda ko‘rsatilgan pauza cho‘zimiga mos ravishda, o‘z kuylashlarini to‘xtatib, keyin davom ettiradilar.

JEK VA JIL

Ingliz xalq qo‘shig‘i





Maqsad: o‘quvchilarda nutq, musiqiy idrok, musiqiy tasavvur, asarlarga baho bera olish kompetensiyalarini shakllantirish.

Asarni tinglash jarayonida ***assotsiativ*** metoddan foydalaniladi, ya’ni ingliz tili so‘zlari bolalar xotirasida “tasvirlanib” qoladi.

Jack and Jil
Went up the hill
To fetch a pail of water
Jack fell down
And broke his crown,
And Gill came tumbling after.

O‘qituvchi bu so‘zlar ma’nosini o‘zbek tiliga o‘girib berishi mumkin:

Jek va Jil qirga chiqdilar
Bir chelak suv olib kelish uchun.
Jek yiqildi,
Boshi yorildi.
Jil esa uning ketidan yiqildi.
(Jil – qiz bola)

Eslatma. Musiqaga qisqa ritmik harakatlar bajarish bolalarda qon aylanishini, miya faoliyatini yaxshilaydi va bola dam olishi uchun ijobiy sharoit yaratadi. Bolalarning diqqati kuchayadi, o‘quv materialini yanada yaxshi qabul qiladi.



Jamoa bo‘lib kuylash

O‘ZBEK BOLALARIMIZ

A. Haydarov she’ri va musiqasi



Baxtdan ko‘ngil yayraydi,
Ko‘zda shodlik porlaydi.
Jahon ichra baralla
Ovozimiz yangraydi.

Naqarot:
O‘zbek bolalarimiz,
Gul-u lolalarimiz.
Chaqqon, kuchli, zehnli,
Tirishqoq har birimiz.

Naqarot.

Navro‘z har bir kunimiz,
Xayrli har tunimiz.
Bizni jon-dildan sevar
Ota-onalarimiz.

Naqarot.

Hammamiz bir tan, bir jon,
Vatanimiz – jonajon,
Yuqtirmaymiz sha’niga
Zarracha gard hech qachon.



Metodik tavsiya: musiqa o‘qituvchisi qo‘shiq o‘rgatish jarayonida o‘quvchilarning musiqiy rivojlanishi xususiyatlarini doimo esda tutgan holda ish olib borishi kerak. Qo‘shiq o‘rgatishda qo‘shiqqa emotsional munosabatni rivojlantirish, tasavvurni, musiqiy eshituv va xotirani o‘stirish, musiqaning ifoda vositalarining ahamiyatini tushunish, jarangli, kuychan, yengil, chaqqon tovushlarda kuylash, o‘zini va o‘rtoqlarini tinglash, qo‘shiqni jo‘rsiz yoki jo‘rlikda ifodali kuylash kabi vazifalar amalga oshiriladi. Qo‘shiq kuy matnida keladigan bir bo‘g‘inga ikki tovushli joylarini (**“di-il”, shod-li-ik”**) aniq ijrosi uchun albatta asarni biron-bir bo‘g‘inga (**“du”** yoki **“zo”**) kuylab o‘rgatish lozim. Bolalar shu joylarda ikkita tovush borligini tushunib, eshitib olsalar, matn bilan kuylaganlarida sof ijroga erishiladi. Qo‘shiq o‘rgatish uslublarini almashtirib turish bolalar zerikishining oldini oladi. Buning uchun yakka, guruh va umumiy xor bo‘lib kuylash, bir guruh kuylasa, ikkinchisi chapak chalib, ritmik harakatlarni bajarishi nafaqat yaxshi natija beradi, balki ularda ritm tuyg‘usi, ijodiylik qobiliyatlarining o‘sishiga olib keladi. Bularga erishish uchun quyidagi ***metodlar*** qo‘llanishi mumkin:

- qo‘shiqni sekin tempda kuylab o‘rganish;
- bo‘g‘inlarda (“di”, “tu” va boshqa) kuylash;
- matnni asar tempi va ritmida gapirib aytish.

6–7-DARSLAR. CHORAK VA NIMCHORAK PAUZALAR

Chorak va nimchorak pauzalarni tushuntirishda avvalgi pauzalar mavzusidagi kabi pauzalar cho‘zimlari notalar cho‘zimi bilan bir xilligiga, bu mavzudagi pauzalarning nota chiziqlaridagi o‘rni, ko‘rinishiga e’tibor qaratiladi.

Chorak pauza – chorak notaga teng.





Quyidagi mashqda choraktalik pauzalar qanday kelishiga e’tibor qarating.



Vazifa. Quyidagi misolda choraktalik pauzalarni toping.



NIMCHORAK PAUZA

Nimchorak pauza – nimchorak notaga teng.

1. Quyidagi mashqni nimchorak pauzalarga rioya qilib kuylash lozim.
2. Mashqni kuylaganda notalarning sof jaranglashiga erishish talab etiladi.
3. Pauzalarda bolalar aniq chapak chaladilar.



O‘quvchilarga beriladigan eslatma: mana bu mashqda chorak va nimchorak pauzalar qanday kelishiga e’tibor bering.

Atamalar lug‘ati

Dinamika – tuvushlarning sadolanish kuchi bilan bog‘liq bo‘lgan jarayon majmui. Musiqaning eng muhim ifoda vositalaridan biri. Dinamika tuslar – *forte, piano, kreshendo, diminuendo* va boshqalar.

Janr – o‘ziga xos xususiyatlar majmui bilan belgilanadigan musiqa asarlari turlari.

Jo‘rovoz – ko‘p ovozli qo‘shiq ohangining turi, boshqa ovozlar bilan polifonik munosabatda bo‘lishi.

Inotatsiya – musiqa ijrosida tovush balandligini aniq ifoda etish.

Interval – ikki musiqa tovushi orasidagi balandlik oralig‘i, o‘zaro bog‘lanishi.

Musiqa tinglash

SOAT QO‘SHIG‘I

R. Tolib she’ri
N. Norxo‘jayev musiqasi



Musiqa tinglash faoliyati vazifalari

Tinglash faoliyati vazifalari. Tinglash uchun berilgan asarda bolalarga janr xususiyatlari (marsh, raqs, qo‘shiq) hamda musiqadagi ***ifodaviylik va tasviriylik*** haqida tushunchalar berilishi lozim.

Dastlab o‘quvchilarga musiqiy obrazning ***ifodaviyligi*** ko‘rsatiladi. Musiqa sho‘x, quvnoq, g‘amgin, xomush, mayin, nozik, tantanavor, hazil, beg‘am, ma’yus, dard kabi turli kayfiyatlarni ifodalashi ko‘plab asarlar misolida ko‘rsatilishi mumkin (I. Akbarov “Alla”si, A. Mansurov “Qo‘zichog‘im–o‘yinchoq” qo‘shig‘i, P. Chaykovskiyning “Kasal qo‘g‘irchoq” asari, “Lazgi”, “Paxtaoyning bayrami” va boshqalar).

R. Tolib she’ri, N. Norxo‘jayev musiqasi bilan aytiladigan qo‘shiqni tinglashda unda so‘z va musiqa ohangida soat harakati aks etganligi ko‘rsatilishi asosida musiqaning ***tasviriyligi*** haqidagi tushunchalar shakllantiriladi. Bu qo‘shiq kuyi matnidagi nimchorak pauzalar soat obrazini ko‘rsatishda ifoda vositasi sifatida muhim ekanligi **tahlil metodi** asosida yoritib beriladi. Pauzalar kompozitorga soat millarining bir maromda chiqillab turishini tasvirlashga imkon bergan.



Jamoa bo‘lib kuylash



O‘YNASANG-CHI, TIPRATIKAN

P. Mo‘min she’ri
N. Norxo‘jayev musiqasi




7
Sen ham ke-lib
12
o'y-na sang - chi,
Xi - jo - lat - ga qo'y-ma- sang -chi.
18
Tip- ra- ti- kan, tip- ra- ti- kan, O'- yin- ga tush di- kang, di- kang,
2
23
Tip- ra- ti- kan, tip- ra- ti- kan, O'-yin- ga tush di- kang, di- kang.



Sen ham kelib o‘ynasang-chi,
Xijolatga qo‘ymasang-chi.
Tipratikan, tipratikan,
O‘yinga tush dikang-dikang.

Qarab turgin, o‘yin tushay,
Qushday uchay, qushday uchay.
Tipratikan, tipratikan,
O‘yinga tush dikang-dikang.

Nega hamma yog‘ing tikan?
Kiyib olgin qalin chopon.
Tipratikan, tipratikan,
O‘yinga tush dikang-dikang.

Asta o‘zim o‘rgataman,
Qo‘ling ushlab o‘rgataman.
Tipratikan, tipratikan,
O‘yinga tush dikang-dikang.

Musiqa savodi bo‘yicha metodik tavsiya

2/4 o‘lchovidagi mashqni bir necha turda bajarish mumkin:



1. Mashqning kuchli hissasini chapak bilan ko‘rsatish.

2. Mashqning kuchli hissasini bitta guruh, kuchsiz hissasini ikkinchi guruhdagi bolalar kuylaydi (kuchli hissani kuylagan bolalar balandroq ovozda, kuchsiz hissani kuylagan bolalar past, yumshoq ovozda kuylasalar, kuchli va kuchsiz hissalar farqini sezadilar va musiqada o‘lchov ahamiyatini his qila oladilar.

3. Mashqni solfejio qilib (notalar nomini aytib) kuylash.

8–9-DARSLAR. 3/4 VA 4/4 O‘LCHOVLARI

3/4 O‘LCHOVI

Musiqa asarlarida 3/4 o‘lchovi ham bor. Bu o‘lchov 2/4 o‘lchovi singari oddiy o‘lchov deb aytiladi. Chunki bu o‘lchovlar taktda faqat bitta kuchli hissa borligini ko‘rsatadi. Bu hissalar uzunligi choraktalik.



3/4 o‘lchovida 1 ta kuchli va 2 ta kuchsiz hissa bor. Bu o‘lchov ko‘proq raqs (ayniqsa, Yevropa xalqlari raqslari) kuylari uchun xos. Vals, mazurka raqslari bunga misol bo‘la oladi.

O‘lchovlar belgisi musiqiy kalitdan keyin qo‘yiladi.

Musiqa savodi bo‘yicha metodik tavsiya.

1**.** Mashqni bitta “lya” bo‘g‘inida kuylash.


2. Chapaklarda ritmini “ta-ta-ta” tarzida chalib o‘rganish**.** Bunda e’tiborni parchadagi birinchi kuchli hissa alohida ta’kidlanishiga qaratish lozim (1i).

3.Mashqni solfejio qilib kuylash.



4/4 O‘LCHOVI

Bu o‘lchov murakkab o‘lchov deyiladi. 4/4 o‘lchovida ikkita kuchli hissa bor: **1- hissa – kuchli, 3-hissa – nisbatan kuchli,** ya’ni 1-dan ko‘ra kamroq kuchli bo‘ladi. 2- va 4- hissalar kuchsiz deyiladi. Bu hissalar uzunligi choraktalik.




4/4 o‘lchovida ko‘proq tantanavor, mardona, marshona, bayramona ruhdagi asarlar yoziladi. Bunga misol qilib ***O‘zbekiston Respublikasi madhiyasini*** keltirish mumkin.



Bu o‘lchov belgisi ham musiqiy kalitdan keyin qo‘yiladi.

MUSIQA IJODKORLIGI



Metodik tavsiyalar:

1. 4/4 o‘lchoviga bajariladigan mashqlarda o‘qituvchi 3/4 o‘lchovi bo‘yicha (yuqoriga qaralsin) berilgan yo‘llanmalarga asoslanishi mumkin.

2. Kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarining badiiy tajribasini boyitish, ijrochilik faoliyatiga qiziqish uyg‘otish maqsadida 4/4 o‘lchovida yozilgan asarga ***dirijyorlik qilish*** (sodda tarzda);

3. Bolalar urma cholg‘ularida (marakas, quticha, uchburchak va h.k.) rimmik jo‘r bo‘lish **metodlaridan** foydalanish mumkin.

Uy vazifalari va ijodiy topshiriqlarni bajarishda “**Ishongin, ammo tekshir**” metodidan foydalanish mumkin. Unda o‘quvchilarning o‘zlari bir-birlarining bajargan vazifalarini tekshiradi.

Bu va keyingi 8-9-darslarda o‘tilishi (3-sinf darsligida **musiqa tinglash** faoliyatida**)** ko‘rsatilgan bo‘lmasa-da, har bir o‘tilgan o‘lchov mavzusidan so‘ng o‘zbek va jahon kompozitorlari yoki xalq musiqa ijodidan 3/4 va 4/4 o‘lchovlaridagi go‘zal namunalardan bolalarga tinglash uchun berish maqsadga muvofiq. Tinglashdan so‘ng o‘tkaziladigan ***musiqiy-pedagogik tahlil*** bolalar bilimini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tinglangan asar bo‘yicha bolalar bilan o‘tkaziladigan *musiqiy-pedagogik tahlil.*

Musiqa tahlili – musiqa tinglashdan olingan hissiy ta’sirni chuqurlashtirishga qaratilgan. Bu murakkab va o‘qituvchidan mahorat talab etadigan bosqich. Asarni tushunish va his etish bir narsa emas.

Musiqa mazmunini so‘z bilan ifodalash qiyin. Shunga qaramasdan, musiqiy obrazning umumiy xislatlarini aks ettiruvchi so‘zlarni topish mumkin. Bunday so‘zlarni topish zaruriyati (vazifasi), bolalarni nafaqat asarni diqqat bilan tinglashga, balki uni tushunishga undaydi. Bolalarning musiqiy tajribasi, so‘z boyligi ortib borgan sari ular musiqiy asarga nozikroq, aniqroq tavsif bera oladilar. O‘quvchilarda so‘z boyligini oshirish maqsadida o‘qituvchi bir qator **usullardan** foydalanishi mumkin. Masalan:

- doskaga yozilgan tavsiflar ichidan tinglangan asarga mos keluvchi so‘zlarni tanlab olish;
- asarning shaklini yoki janrini kartochkalar yordamida aniqlash va h.k.

Musiqa savodini egallab olgan sari o‘quvchilar musiqa tahlili jarayonida o‘z bilimlarini qo‘llay boshlaydilar.

3-4-sinflarda suhbat quyidagi savollar yuzasidan o‘tkaziladi:

– mazmun va xarakter;
– musiqiy janr;
– musiqa qanday o‘zgarishi;
– musiqiy shakl.

Jamoa bo‘lib kuylash

SALOM, QUYOSHJON

R. Tolib she’ri
N. Norxo‘jayev musiqasi






9
Mo-viy ko'k-da ya-raq- la, ya- raq- la, Nu-ring so-chib cha-raq- la,
12
cha-raq- la, Mo-viy ko'k-da ya-raq- la, ya- raq- la,
15
Nu-ring so-chib cha-raq- la. Qu-yosh, sen-ga o'r-toq- man,
18
Sen-day sho'x-man, quv-noq-man, ku- lib ku- lib yur, qu- yosh!



1. Quyosh, quyosh, quyoshjon,
Salom, salom, jonajon.
Moviy ko'kda yaraqla,
Nuring sochib charaqla.

Naqarot:
Quyosh, senga o'rtoqman,
Senday sho'xman, quvnoqman,
Kulib-kulib yur, quyosh.
Nurdan qilib arg'imchoq,
O'ynayman shod, xushchaqchaq,
Nur qo'lingni ber, quyosh.

2. Uyg'onib tong nahorda
Ko'ngil quvnar bahorday.
Olam to'ldi gullarga,
Olam to'ldi nurlarga.

Naqarot.

3. Baxtli, go'zal zamonda,
Men yashayman bo'stonda.
Tong yashaydi dilimda,
Do'stlar tutar qo'limdan.

Naqarot.

“Salom, quyoshjon” qo‘shig‘ni o‘rgatish bo‘yicha metodik tavsiyalar.

• qo‘shiq mualliflari – shoir R. Tolib va kompozitor N. Norxo‘jayev hayoti va ijodini yana bir eslatish;

• qo‘shiqning badiiy mazmuni, matn va musiqa orasidagi o‘zaro bog‘liqlik, uyg‘unlikni chuqur anglash va o‘quvchilarga yetkaza olish, *ya’ni* **she’rdagi** *bolalik baxti, shodonligi, go‘zal vatanda yayrab yashash ruhi* **musiqada** *major ladi, har-akatchan kuy, shaxdam ritm, tez sur’at, yorqin dinamik tuslar va jarangdor avjlar* orqali ifodalanganligini ko‘rsatib berish;

• musiqa ifoda vositalarini tahlil qilish (qo‘shiq shakli (band, naqarot), jumlalari (2 taktli), lad (major), tonalligi (do major), sur’ati (allegro), ritmi (sinkopali) va hokazo);

• asardagi ijro uchun murakkab bo‘lgan joylar – *bir bo‘g‘inga turli cho‘zimdagi bir necha tovushlarning to‘g‘ri kelishi,* kuyda uchraydigan pastga va yuqoriga **sof 4. va sof 5.** intervallariga sakramalari, **kich.2 va kat.2** intervallarining bir jumlada almashib kelishi, talaffuzda yopiq bo‘g‘inlar (“sen-day sho‘x”) ijrosida bo‘g‘in oxiridagi undoshlarni keyingi bo‘g‘in boshiga o‘tkazib (“se-nda-ysho‘-xman) kuylash ijro jarayonida ifodali, jarangi uzilib qolmagan ijroga erishishga yordam berish;

• bu qo‘shiqning 2–3 darsga mo‘ljallangan (15 minutdan) o‘rgatish rejasini tuzishi.

Ish samaradorligi o‘qituvchi tomonidan qo‘llanadigan og‘zaki, ko‘rgazmali, amaliy usullar, emotsional ta’sir etish, taqqoslash, individual yondashuv metodlarining o‘z o‘rnida ishlatilishiga bog‘liq.

Jamoa bo‘lib kuylash

ONA TILIM

A. Haydarov musiqasi va she’ri




Shi-rin, qan-d-u a-sal
san, She'-r-u g'a-zal, ma-sal - san. - Ham-ma til-lar -
dan a' - lo, Chi-roy - li-san, go' zal - san. O..
Naqarot
O-na ti lim, o'z-bek ti-lim,


1.
jon ti- lim.
Naz-m-u na-sr,
bi- lim - lar-ga
kon ti- lim,
1.
2.
kon ti- lim
Jon
2.

Shirin, qand-u asalsan,
She’r-u g‘azal, masalsan.
Hamma tillardan a’lo,
Chiroylisan, go‘zalsan.

Naqarot:
Ona tilim, o‘zbek tilim, jon tilim,
Nazm-u nasr, bilimlarga kon tilim.

Men senda o‘quvchiman,
Ma’nolar uquvchiman.
So‘zlaring ummonidan
Dur, gavhar topuvchiman.

Naqarot.

Navolarim o‘zbekcha,
Sadolarim o‘zbekcha.
Jo‘shib kuylayin qo‘shiq,
Yayrab ko‘nglim to‘lguncha.

Naqarot.

Ovoz sozlash mashqlari. Qo‘shiq kuylashni boshlashdan oldin o‘qituvchi ovoz sozlash mashqlarini bolalarga kuylatadi. Ularga ovoz sozlashning muhimligi, ya’ni ovozlarni ish holatiga keltirish lozimligi tushuntirib boriladi. Bolalarga yoqadigan, qiziqish uyg‘otadigan mashqlarni qo‘llash maqsad a muvofiqdir. Bunday mashqlar sifatida tinglash uchun olinadigan asarlardan fragmentlar (taniqli mumtoz musiqa asarlari – simfoniya, ariya, pyesalardan vokalizatsiya uchun qulay bo‘lgan biron jumla, o‘rganish uchun olinadigan qo‘shiqlardan parchalar kuylatish mumkin).

Darsda qo‘llanadigan ovoz sozlash mashqlari kuylash uchun qulay bo‘lishi, davomli ravishda o‘zlashtirilishi, ma’lum bir kuylash malakalarini (diapazonni kengaytirish, tayanchli nafasni, “zanjirli” nafas, ikkiovozlikning eng boshlang‘ich malakalarini) rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi, musiqa idroki, musiqa xotirasiga ijobiy ta’sir etuvchi bo‘lishi maqsadga muvofiq. Quyida bir necha misollar keltirildi. Yozuvda ularda stakkatoli (1), sirg‘altirib (2) va legatoli (3) kuylash uchun ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, ularning har birini, o‘qituvchining ish maqsadiga ko‘ra ijro shtrixlarini o‘zgartirib qo‘llash mumkin. Masalan, 1-mashqni yuqoridan pastga legatoga kuylash; 2-mashqni faol tovush shakllantirish uchun non legatoga, 3-mashqni esa og‘zini yumib, yengil stakkatoga kuylash mumkin va h.k.

1-mashq

a) **Bir tekis**



2-mashq

a) **Bir tekis**



3-mashq



Mm. (lya, za)

Re(na), e(ne), lya(na)

II BOB. MUSIQA OLAMIGA SAYOHAT

1-DARS. MUSIQANING IFODA VOSITALARI

Musiqa insonga o‘zining **ifoda vositalari** – ohang, lad, metro-ritm, temp, dinamika, registr, faktura, ko‘povozlik, shakl, garmoniya kabi “bo‘yoqlari” uyg‘unligida ta’sir etadi. Bu ifoda vositalari asarning kayfiyati, go‘zalligi, mazmuni va g‘oyasini tinglovchiga yetkazib beradi va shu vositalari yordamida musiqa insonlarni quvontiradi, hayajonlantiradi, o‘ziga qiziqish uyg‘otadi. Inson tuyg‘ularining barcha ko‘rinishlari – quvonch, qayg‘u, baxt, dard-alam musiqada aks etishini bolalar eshitishlari, anglashlari va his etishlari uchun o‘qituvchi barcha shart-sharoitlarni hosil qiladi, bolalarning musiqa bilan muloqoti quvonchli bo‘lishi uchun turli vositalarni qo‘llaydi. Qadimgi Yunonistonda musiqaga katta ahamiyat qaratilgan.

Ma’lumki, musiqa yunoncha “muzalar san’ati” degan ma’noni anglatadi. Muzalar – yunon asotirlariga ko‘ra san’at va fanlarning ilhom parilari hisoblangan. “Muza” so‘zidan “musiqa” kelib chiqqan.



Musiqani ongli idrok etish, ijro qilish o‘z navbatida asarning badiiy ohang va mantiqiy jihatdan xotirada turg‘un saqlanishini ta’minlaydi. Shuni unutmaslik lozimki, diqqat, qiziqish va ongli ravishda o‘rganilgan qo‘shiq asari ohangi va tinglangan musiqa kuyi, garchi u vaqti-vaqti bilan takrorlab turilmasa ham, xotirada uzoq vaqt muhrlanib qoladi. Bunda ijrochilik malakalari musiqiy asar obrazi, kayfiyatining yorqin, ifodali yoritilishiga qaratilgan bo‘lishi talab etiladi. Bunda musiqiy asarning badiiy ijrosiga erishish ***maqsad*** bo‘lib, malaka va ko‘nikmalarni egallash shu maqsadga yetishishda ***vositadir.***

Musiqa tinglash

ANDANTE

Y. Gaydnning “Syurpriz” simfoniyasi 2-qismidan parcha





Yozef Gaydn (1732–1809) Avstriyaning ulug‘ kompozitoridir. Y. Gaydnning ijodiy merosi ulkan va xilma- xil. U 100 dan oshiq simfoniya, 14 ta messa (yirik diniy asar), xor va orkestr uchun “Bo‘ron” madrigali, “Yil fasllari” va “Toviyaning qaytishi” oratoriyalari kabi olamshumul asarlar yozgan.





Tinglashdan oldin o‘quvchilarning diqqatini jamlash, faollashtirish uchun o‘qituvchi o‘quvchilar oldiga ularning musiqiy tayyorgarligi darajasidan kelib chiqqan holda turli vazifalar qo‘yishi mumkin. Musiqa tinglash faoliyatini o‘tkazish rejasiga bir namuna.

O‘qituvchi:

– Bolalar, hozir biz tinglamoqchi bo‘lgan parcha avstriyalik mashhur kompozitor Y.Gaydnning “Syurpriz” deb nomlangan simfoniyasidan olingan.

– Ayting-chi, “Syurpriz” nima degani? (Javoblarning eng to‘g‘risini tanlab oladi va to‘ldiradi.

– Tinglashdan oldin men sizlarga bu asar yaratilishi tarixini aytib beraman.

O‘qituvchi so‘zlab beradi:

Aytishlaricha, Yozef Gaydn bir vaqtlar Londonda orkestrga rahbarlik qilgan. U aksariyat inglizlar ba’zan konsertlarga musiqa tinglash zavqi uchun emas, balki an’ana uchun borishlarini bilar edi. London konsert zallarining muxlislari chiqish paytida o‘zlarining qulay o‘rindiqlarida uxlashni odat qilishgan edi. Gaydn o‘zining konsertida ham shu holat yuz berishini bildi. Bu bastakorni g‘azablantirdi va u befarq tinglovchilardan o‘ch olishga qaror qildi. Gaydn londonliklar uchun yangi simfoniya yozdi. Eng muhim daqiqada, tomoshabinlarning bir qismi mudray boshlaganda, do‘mbiraning (bas barabanining) momaqaldiroqday zarbasi eshitildi. Har safar tinglovchilar tinchlanib, yana ko‘zi ilinishi bilanoq yana kuchli sado ularni uyg‘otib yuboraverdi. O‘shandan beri bu simfoniya “do‘mbira sadolariga boy” deb ataladi.

O‘qituvchi savol beradi:

– Asarning yaratilish tarixi bilan tanishdingiz. Musiqani diqqat bilan eshiting va ayting – asarda bir kayfiyat aks etadimi yoki bir necha kayfiyat berilganmi?

Bunday ***vazifa–savollar*** bolalarda musiqani tinglashga xohish uyg‘otadi, musiqiy idrokni faollashtiradi. Bolalar asar mazmuni, musiqiy nutq vositalarining ifodaviyligini anglashga harakat qiladilar.

Tinglashdan so‘ng beriladigan savol*:*

– Bu asarda o‘zingizga tanish qanday ifoda vositalarini topdingiz?

(O‘quvchilar o‘z idrokidan, tasavvur va bilimlaridan kelib chiqqan holda javob beradilar. Ammo o‘qituvchining o‘zida bu savollarga aniq javob bo‘lishi shart).

Asar qayta tinglanadi.

O‘qituvchi:

– Bolalar, siz musiqani ancha e’tibor bilan tingladingiz. Savollarga javob berdingiz. Bu asardagi ifoda vositalarini topdingiz. U 4/4 o‘lchovida yozilgan, major-ladi, usuli ravon, piano, forte dinamik tuslari bor. – Biz bu asarni yana bir bor eshitib ko‘ramiz. Syurpriz joylarida hammamiz bitta qattiq chapak chalib qo‘yamiz. Diqqat bilan tinglang va kuy “oqimi”ni kuzating.

O‘qituvchiga metodik eslatma: o‘quvchilarda musiqa tinglash malakalarini rivojlantirish bir qancha *qonuniyatlarga asoslanishi lozim*:


1. O‘quvchilarni musiqani diqqat bilan tinglashga, musiqa “oqimini kuzatish-ga o‘rgatish lozim. Tinglash faol bo‘lishi uchun uni tashkil etish va boshqarish talab etiladi.
2. Musiqa tinglash maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim.
3. Berilayotgan material bolalar yoshiga mos bo‘lishi va puxta o‘zlashtirilishi kerak. Puxta o‘zlashtirilgan asargina musiqiy dunyoqarashni kengaytiradi, didni shakllantiradi, idrokni rivojlantiradi.
4. Shu o‘rinda bolalarga umumiy tarzda “orkestr”, “simfoniya”[2] tushunchalarini berib o‘tish lozim.

Vazifa: o‘quvchilar Y.Gaydnning “Syurpriz” simfoniyasining 2- qismidan parcha tinglaydilar. Ularga beriladigan vazifa–parchadagi musiqa ***ifoda vositalarini yuqorida keltirilgan sxema asosida*** aniqlash.

Jamoa bo‘lib kuylash

SVETOFOR

S. Ochil she’ri
S. Nurmetov musiqasi



[2] Orkestr – bir necha turli cholg‘ular guruhidan (torli, damli, urma va h.k.) tashkil topgan jamoa. Simfoniya – orkestr uchun musiqiy asar.



O‘qituvchi o‘quvchilarga bugun o‘tiladigan yangi qo‘shiq nomini tanishtiradi va o‘zi ijro etib beradi. Qo‘shiq tinglangandan so‘ng asarda qanday ifoda vositalari borligi, bu ifoda vositalari qo‘shiq obrazini ochishga qanday yordam berishi bolalar bilan birga aniqlanadi. Bunda quyidagi **diagrammadan** foydalanish bolalarning musiqa ifoda vositalari haqidagi bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. O‘qituvchi bu diagrammani bolalar bilan savol-javoblar asosida doskaga yozib, to‘ldirib chiqadi.

“Svetofor” qo‘shig‘ini o‘rgatish vazifalari:

1. Qo‘shiqni jumlalarga bo‘lib o‘rgatish, kuylashda sof intonatsiya, faol artikulyatsiyaga erishish.

2. Kuydagi yuqoriga ***kvinta sakramalarining***, ***ufor usulining*** aniqligi, bir necha marta qaytariluvchi bir balandlikdagi ***do1***, ***sol1***, ***do2***, ***si bemol*** kabi tovushlarning bitta pozitsiyada kuylanishiga e’tibor qaratish.

Bu qo‘shiq ham 2 ta dars davomida o‘rganilishi ko‘zda tutilgan.

3–4-DARSLAR. RITM (USUL)

Musiqada **ritm** asar rivojlanishi tartibining asosiy musiqiy ifoda vositalaridan biri. Tor ma’noda **ritm** tovush cho‘zilmalarining izchilligidir (bunda tovushlar faqat o‘zining davomiyligi jihatdan baholanadi). Har bir ritmik “kuchli” va “kuchsiz” yoki “keskin” va “yengil” hissa va cho‘zimlarning almashinuviga asoslanadi. Qo‘shiq asarlarida musiqaviy ritm ma’lum darajada she’riy ritmga mos bo‘ladi.

Metodik tavsiyalar. Ritmning musiqa asaridagi ahamiyatini o‘quvchilarga yetkazib berish, musiqiy faoliyatlar asosida ularda ritmni his etish qobiliyatini rivojlantirish maqsadida bir qancha ***o‘yin metodlaridan*** foydalanish mumkin.

1. ***“Qo‘shiqni ritmidan tanib ol” o‘yini***. O‘qituvchi chapakda bolalarga tanish bo‘lgan qo‘shiq ritmini chaladi. Ular chalingan ritmdan qo‘shiqni tanib olishlari kerak.

2. ***“Aks sado” ritmik o‘yini*** musiqiy eshituv idroki aniqligini, reaksiya tezligini, xotira va shakl hissini o‘stiradi.

3. ***“Dirijyorlar” mashqi***. O‘quvchilar rolli o‘yinlarni yaxshi ko‘radilar. Ularga dirijyorlik qo‘l harakatlarida kuchli va kuchsiz hissani nutqda va musiqada ko‘rsatib berish taklif qilinadi. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan she’r deklamatsiya qilib, zarb tushadigan bo‘g‘inlarda qo‘llarni pastga tushiradi, zarbsiz bo‘g‘inlarda esa tepaga ko‘taradi. So‘ng qo‘shiqni dirijyorlik qilib kuylaydilar.

3-sinf darsligida ritmga doir berilgan mashqlarga ham murojaat qilinadi**.**

O‘quvchilar har bir musiqa asarining o‘z ritmi borligini tushunib yetishlari kerak.

Musiqa tinglash

MARSH

D. Omonullayeva musiqasi



O‘quvchilar D. Omonullayevaning “Marsh” asarini tinglaydilar, bolalar bu asarning yorqin, bayramona, mardona xarakterini belgilaydilar. Tempi chaqqon, shaxdam ekanligini aytadilar. Musiqadagi vazminlik, bir tekis ritm-usul, ohangining jarangdorligi bu asarni boshqa marshlardan ajratib turishini bilib oladilar.

Oldingi chorakda bolalar N. Norxo‘jayevning “Marsh” asari bilan tanishganlar. Marsh asarini tinglash va idrok etish orqali o‘quvchilarning marsh janri haqidagi bilimlari chuqurlashadi. Tinglashdan oldin o‘qituvchi o‘quvchilarga O‘zbekistonning taniqli kompozitori D. Omonullayevaning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot beradi. O‘qituvchi taklifiga ko‘ra, bolalar o‘zlariga tanish bo‘lgan bir necha marsh asarlarini eslatadi (1-chorakdagi marshga bag‘ishlangan dars ishlanmasida ko‘rsatib o‘tilgan). O‘qituvchi bolalarni marsh janrining kelib chiqish tarixi bilan tanishtiradi.

“Marsh“ so‘zi fransuz tilidan olingan bo‘lib, “qadam tashlab yurish” ma’nosini anglatadi. Musiqada shaxdam, harakatchan ritmda yozilgan pyesalar marsh deb ataladi. Marsh asosan 2/4 yoki 4/4 o‘lchovlarida yoziladi. Aytishlaricha, marsh qadim tarixda harbiylar musiqa janri sifatida xalq ijodida safarda yuradiganlar qo‘shig‘idan, raqs musiqasidan kelib chiqqan. 18-asrdan boshlab Yevropa mamlakatlarida marsh musiqasini ijro etadigan alohida harbiy ansambllar, orkestrlar tuzilgan. Ularning tarkibida asosan baraban, yog‘och va mis puflama cholg‘ular bo‘lgan.

Marsh musiqasining asosiy jihatlari:

- 2/4 yoki 4/4 o‘lchovi;
- marshlarning yorqin, xotirada qoluvchi ohangi.

Vazifa. O‘qituvchi o‘quvchilarga D. Omonullayeva va N. Norxo‘jayevning “Marsh” asarlarini ***“taqqolash va qiyoslash”*** **metodlarini** qo‘llagan holda bu asarlardagi o‘xshashlik va tafovutni aniqlash vazifasini beradi.

Jamoa bo‘lib kuylash

DIYOR MADHI

H. Rahmat she‘ri
N. Norxo‘jayev musiqasi




O-na Va-tan er- ta- si, Ke-la- jak- ning me- va- si,
Bi- lim, hu-nar e- ga- si. Biz bo'-la- miz al- bat- ta,
Ni- yat- lar ul- kan, kat- ta. a - - -
- Ni- yat- lar ul- kan, kat- ta.

Ona vatan ertasi,
Kelajakning mevasi,
Bilim, hunar egasi.
Biz bo‘lamiz albatta,
Niyatlar ulkan, katta.

Orzularim uch berar,
Diyor mehri kuch berar.
Dilda yorug‘ tuyg‘ular,
Yorug‘likka oshnamiz,
Ezgu ishga tashnamiz.

Dovruqlidir Vatanim,
Obro‘lidir Vatanim,
Dunyodagi chamanim,
Ko‘z qoramdek saqlayman,
Ishonchingni oqlayman.

Temur bobom dilda bor,
O‘lkam bo‘lur gul, obod.
Bayroqni tutib ozod,
Shod boramiz ilgari
Mard o‘g‘lonlar singari.

Qo‘shiq o‘rgatish quyidagilarga qaratilgan:

1. Qo‘shiq bilan umumiy tanishuv – asar mualliflari ijodi, asarda baxtli bolalik, ona Vatan tarannum etilishi.

2. Vokal-xor malakalaridan biri bo‘lgan *kantilenali* kuylashni o‘stirish asosida ifodali ijroga erishish.

3. O‘quvchilarni qo‘shiqning *grafik tasviri, nota yozuvlari, tovush balandligi, metro-ritm, lad* munosabatlari, *janr* bilan tanishtirishda ***“harakatlanuvchi ko‘rgazmalilik va ko‘rib idrok etish ko‘rgazmaliligi”*** **metodidan** foydalaniladi.

Ijodiy vazifa bajarish. ***“Musiqa tahrirchisi”*** (xatolarni to‘g‘rila) ***o‘yinini*** o‘tkazish mumkin. O‘quvchilar ikki guruhga bo‘linadilar. Har bir guruhga “Diyor madhi” qo‘shig‘ining ritmik ko‘rinishi yozilgan (xatoli) varaq beriladi. O‘quvchilar diqqat bilan asar ritmik ko‘rinishini ko‘rib chiqishlari, xatolarini aniqlab, to‘g‘rilashlari lozim. Bu vazifalarni birinchi bo‘lib bajargan guruh g‘olib bo‘ladi.

Mutaxassislar musiqiy eshituv, ritm hissi va musiqiy xotirani musiqiy qobiliyatlarning asosiy ko‘rinishlari deb belgilaydilar.

Musiqiy eshituv qobiliyati tovushning baland-pastligi, kuchi, tembri va davomiyligini his etishdir.

Musiqiy ritm tuyg‘usi musiqadagi vaqt-o‘lchovli harakatni, uning ifodaviyligini his etish, aniq ijro etish qobiliyatidir.

Musiqiy xotira – musiqiy asarni tez va uzoq vaqt yodda eslab qolish qobiliyati.

Bu qobiliyatlar umumlashma nom bilan musiqiy pedagogika amaliyotida **musiqiylik** deb ham yuritiladi. Ammo musiqiylik 3 ta qobiliyat bilan cheklanmaydi. Musiqiylikning asosini musiqadagi ifodaviy mazmun, obrazni tushuna olish, unga hissiy munosabat ko‘rsata olish qobiliyatlari ham hosil qiladi. Darsda o‘quvchilarni musiqani diqqat bilan tinglash, asarlarni qiyoslash, taqqoslash, eng yorqin va idrok etilgan asarlarga baho bera olishga, musiqa ijrochiligi uchun lozim bo‘lgan malaka va ko‘nikmalarga o‘rgatish musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish demakdir.

5–6-DARSLAR. MUSIQA VA HARAKAT. RAQS

MUSIQA – inson hissiy hayajonlari, ichki kechinmalari, atrof voqelikni musiqiy tovushlarda aks ettiruvchi san’at turidir. Musiqa insonning turli kayfiyatlarini (ko‘tarinkilik, shodlik, zavqlanish, g‘amginlik, qo‘rquv va b.) ko‘rsata oladi. Musiqaning ifodaviy, tasviriy imkoniyatlari ham juda katta. Musiqa inson madaniyatida va hayotida o‘ziga xos o‘ringa ega. U dam olish va ko‘ngil ochish paytlari, turli marosim, bayram, bazm va sayillar, diniy va rasmiy tadbirlar, ommaviy va harbiy yurishlar, sport mashqlari va mehnat jarayonida jaranglaydi. Shuning uchun musiqa asarlari o‘z mazmuniga muvofiq holda bir nechta uslub, tur va janr guruhlariga ajratiladi. Balet va raqs san’atlari ham o‘zining badiiy obrazlarini musiqa yordamida ifodalaydi.





RAQS – san’at turi. Bunda raqqosaning tana harakati va holatlari, plastik ifodaviyligi, yuz imo-ishoralari, ritm, temp orqali obraz yaratish raqsning asosiy vositasidir. Raqs insonning mehnat jarayoni va hissiy taassurotlari bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan. Dastlab qo‘shiq va so‘z bilan bog‘liq bo‘lib, keyinchalik mustaqil san’at turiga aylangan. Raqs asrlar davomida takomillashib, barqaror shakllarga ega bo‘lib borgan. Ijrochining libosi raqs obrazlariga aniqlik beradi.

Musiqa tinglash

O‘RDAKCHALAR RAQSI


Fransuz xalq qo‘shig‘i











O‘rdakchalar raqsi – 1950-yillarda shveytsariyalik akkordeonchi va garmonik ijrochi Verner Tomas Davos shahrida (Shveytsariya) bastalagan bolalar qo‘shig‘i va raqsi.

Qo‘shiqni ommaga yanada yoqimli tarzda taqdim qilish uchun Tomas turli xil quvnoq ohanglarni yaratdi. Elliginchi yillarning o‘rtalarida uning xayoliga bitta kuy keladi, bu ayniqsa jozibali xarakteri bilan ajralib turadi. Musiqachi o‘zining yangi kompozitsiyasini darhol tomoshabinlarga taqdim etmadi: u kuyning premyerasini keyinga qoldiraverdi.

Faqatgina 1963-yilda Verner birinchi marta ohangni ommaga namoyish etdi va odamlar uni eshitib, beixtiyor qimirlay boshlaganini payqadi. O‘shanda kompozitsiya muallifi oddiy, ammo quvnoq va eslab qolish oson bo‘lgan musiqa uchun raqslarni o‘ylab topishga qaror qildi.

Kuyni tinglagandan so‘ng o‘qituvchi o‘quvchilarga bir qator **savollar** berishi mumkin, masalan:

– Bu qo‘shiq musiqaning qaysi sohasiga tegishli – yengil yoki jiddiy?

– Unda qanday intonatsiyalar ustunlik qiladi?

Mana shunday yetakchi savollar tufayli bolalar o‘qituvchi yordamida musiqa ommaviy va estrada musiqasi shakllariga (asosan qo‘shiq va raqsga) asoslangan degan xulosaga keladi. Bu asarni tinglaganda zavqli energiya paydo bo‘ladi. Bolalardan bu asarni harakatlar ijrosi bilan kuylashni so‘rash mumkin.

Jamoa bo‘lib kuylash

JON VATAN

K. Turdiyeva she’ri
I. Yo‘ldosheva musiqasi



Bizlar toy-toy yurgan hovli, uylar ham,
Onajonlar aytgan alla, kuylar ham,
Bog‘cha, maktab tomon eltgan yo‘lakcha –
Vatanimz dunyo ichra bo‘lakcha.

Naqarot:
Tug‘ilgan kun muborak,
Jon Vatan, jon Vatan.
Sen bizga sevimlisan
Hammadan, hammadan.
Qayga borsak, kelar yurtga
Qaytgimiz, qaytgimiz.
Eng yaxshisan, deya
Takror aytgimiz, aytgimiz.
Tug‘ilgan kun muborak,
Jon Vatan, jon Vatan.

Vatan asli mahalla-ko‘y,
Atrofdagi daraxtlar-u gulbog‘lar.
Sen o‘zingsan bizga mehr ulashgan,
Yuragimiz sening birla birlashgan.

Naqarot

Atamalar lug‘ati

Kanon – kuyning barcha ovozlardagi aniq takrorida qat’iy taqlid (imitatsiya) ga asoslangan polifonik musiqa shakli.
Kapella – xor jamoasi.
Kuy – melodiya – musiqaning asosiy ifoda vositasi.

Bu asar Vatan haqidagi qo‘shiqlar turiga kiradi. Qo‘shiq si-major tonalligida berilgan. Marshona, quvnoq xarakterga ega. Unda bir qator intonatsion qiyin joylar bor. Masalan, qo‘shiqning birinchi jumlasida ***sof 4*** bilan yuqoriga, keyin ***kat.3*** pastga sakramalar bor. 3-taktda 8, 9 marta bitta ***sol tovushi*** qaytariladi. Bolalar uchun bu ba’zida murakkablik qiladi. Bu ohangchalarni o‘qituvchi mashq jarayonida bir necha marta mustahkamlab olib, keyin qo‘shiq o‘rgatishga o‘tgani ma’qul.

Mashq kuylash

6-dars mazmunida **mashq kuylashga** e’tibor qaratilishi lozim. Unda nafaqat kuylash malakalari (ravon va aniq talaffuz, qo‘shiqni baravar boshlash (ansambl) ustida ishlanadi, balki ijodiy topshiriqlar, vazifalar bolalarning o‘lchovlar haqidagi bilimlari mustahkamlanadi.

Mashq sifatida “kichik o‘rdakchalar raqsi”dan parchalar kuylash bolalarga estetik zavq bag‘ishlaydi, darsga qiziqishini oshiradi.




7-DARS. TORLI CHOLG‘ULAR. CHANG CHOLG‘USI

Musiqa cholg‘u asboblari tovush manbalariga qarab guruhlarga, o‘ziga xos qo‘shimcha belgilariga qarab esa xillarga bo‘linadi. Musiqa cholg‘u asboblari asosan torli, puflab chalinadigan, teri qoplamali, elektr va elektron musiqa cholg‘ulari guruhlariga bo‘linadi.

Torli cholg‘u asboblarning guruhlarini kamonli sozlar (skripka, alt, violonchel, kontrabas, viola, o‘zbek sozlaridan g‘ijjak, qo‘biz, sato va b.), chertib chalinadigan sozlar (arfa, gusli, sitra, gitara, domra, balalayka, dutor, tanbur, rubob, setor, do‘mbira va b.), urib chalinadigan torli sozlar (chang, simbali), klavishli urib chalinadigan sozlar (klavikord, fortepiano, royal), klavishli chertib chalinadigan sozlar tashkil qiladi.

Chang – o‘rta asr Sharq madaniyatida qo‘llangan torli tirnama musiqiy soz. Burchakli yoki yoysimon shaklda bo‘lib, unga 13 va undan ortiq torlar o‘rnatilgan.

O‘rta asrlarda Noqus Changiy, Mavlono Mirek, Changiy Buxoriy, Xoja Bobo Changiy, Hofiz Changiy, Darvishali Changiy kabi ijrochilar tanilgan. Gruzinlarda changi, abxazlarda ayume deb ham yuritiladi; o‘zbek, tojik, uyg‘ur xalqlari torli urma musiqa cholg‘u asbobi. O‘zbekistonda keng ishlatiladigan hozirgisining turi trapetsiya shaklidagi tovushxonaga ega. Umumiy diapazoni 2,5 oktava. Bambukdan ishlangan ikkita cho‘p yordamida urib chalinadi. Jarangdor tembr, keng dinamik va texnik imkoniyatlari tufayli turli ansambl, xalq cholg‘ulari orkestri tarkibida hamda yakkanavoz cholg‘u sifatida keng tarqalgan. O‘zbekistonda chang ijrochilaridan Matyusuf va Fozil Xarratovlar, R. Isaboyev, F. Sodiqov, B. Aliyev, T. Xo‘jamberdiyev, T. Mahmudov, A. Odilov, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artistlar T. Otaboyev, F. Shukurova, T. Sobirov va b. tanilgan.



O‘zbekiston xalq hofizi Mahmudjon Tojiboyev (1957–2020)

M. Tojiboyev maqom ilmi va san’atini puxta egallagan ijodkor, O‘zbekiston xalq hofizi, “Mehnat shuhrati” ordeni sohibi, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi professori, O‘zbek milliy maqom san’ati markazi ilmiy xodimi bo‘lgan.

Mahmudjon Tojiboyev 1957-yilda Farg‘ona viloyati Quva tumanida tug‘ilgan. 1984-yilda Toshkent konservatoriyasini tugatgan. U qo‘shiq aytishni dastlab E. Mamatov, G‘. Hojiqulovdan, keyinchalik hofizlik an’analarini O. Otaxonov, O. Alimaxsumov, O. Hotamov va F. Mamadaliyevdan o‘zlashtirgan, sozandalik sirlarini esa T. Alimatovdan o‘rgangan.

Mahmudjon Tojiboyev 1984-yildan Yunus Rajabiy nomidagi “Maqom” ansambli yakkaxoni. 2000-yildan esa O‘zbekiston davlat konservatoriyasi dotsenti sifatida faoliyat ko‘rsatgan. 2000-yilda “O‘zbekiston xalq hofizi” faxriy unvoni sohibi bo‘lgan.

Ijodkor repertuaridan Shashmaqom (“Saraxbori Navo”, “Saraxbori Dugoh”, “Mo‘g‘ulchayi Segoh”, “Navro‘zi Sabo”, “Nimcho‘poniy” va boshqalar) va Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari (“Dugoh”, “Chorgoh”, “Ushshoq”, “Shahnozi Gulyor”, “Bayot” va boshqalar), katta ashula (“Yovvoyi Chorgoh”, “Yolg‘iz”, “Ey dilbari jononim” kabi), mumtoz (“Topmadim”, “Asiriy” va “Adoiy”, “Chorzarb”, “Bozurgoniy”) o‘rin olgan.

Mahmudjon Tojiboyev shoirnafas hofiz sifatida ijro uslubi vazminligi, lirikaga boyligi, ovoz va cholg‘u mutanosibligi bilan ajralib turgan. Osiyo, Amerika, Yevropa va Shimoliy Afrika mamlakatlarida gastrollarda bo‘lgan. 1987-yilda Yunus Rajabiy nomidagi Respublika maqom ijrochilari tanlovi g‘olibi bo‘lgan.



Musiqa tinglash

OYMOMA

M.Tojiboyev Navo maqomi ohanglari asosida yaratgan



"OYMOMA" QO'SHIG'I

M. Tojiboyevning Navo maqomi ohanglari asosida yaratgan "Oymoma" qo'shig'i o'quvchilar repertuarida alohida o'rin egallaydigan haqiqiy milliy ohangi bilan ajralib turadigan asarlardandir. Bu qo'shiqni tinglash, ijro etish, o'rganish o'quvchilarda nafaqat kuylash malakalarini rivojlantiradi, balki milliy musiqani, milliy usulni his etishlarida katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun bu qo'shiq ijrosi – yaxshi artikulyatsiya, yaqin tovush bilan o'zbekona aytish, ritmdagi sinkopalarni mayin kuylash malakalari o'qituvchining e'tiborida bo'lishi kerak. Shu o'rinda musiqaning fidoyi bilimdoni va ijrochisi bo'lgan qo'shiq muallifi haqida ham o'quvchilarga yetarli ma'lumot berish ularda musiqa san'atini tushunish va sevish, musiqa madaniyatimiz va uning unutilmas namoyondalari bilan faxrlanish tuyg'usining shakllanishiga yordam beradi.

QUVNOQ BOLALAR QO‘SHIG‘I

X. Qayumov she’ri
G‘. Qodirov musiqasi





Qor yog‘ar, qor yog‘ar –
Oq parga o‘xshar.
Xonamiz gul ochgan
Bahorga o‘xshar.

Yangi yil archasin
Bezatdik ko‘rkam.
Shoxlari tovlanar,
Chiroyli biram.

Naqarot: Davrani keng olib,
Boshlaymiz o‘yin.
Aytamiz Yangi yil
Qo‘shig‘in, kuyin.

Metodik tavsiya. Nota bilan kuylashni boshlashdan oldin o‘qituvchi bolalar bilan kuyni tahlil qiladi. Kuyni tahlil qilish jarayonida quyidagi masalalar aniqlanishi kerak:

1. Lad va tonallik.
2. O‘lchov.
3. Kuyning intonatsion tuzilish xususiyatlari (harakat yo‘nalishi, notalarning nomi, sakrashlar, ularning katta-kichikligi).
4. Kuyning ritmik tuzilishi xususiyatlari (misolda qanday cho‘zimlar uchraydi, pauzalar bormi, misol taktning qaysi hissasidan boshlanadi va boshqalar).
5. Mashqdagi musiqaviy iborani va nafas olishni aniqlash.
6. Mashqni ijro etish, ya’ni qo‘shiq ritmida nota o‘qish.

Jamoa bo‘lib kuylash

Nota bilan kuylash




Mana bu mashqni esa “lya” bo‘g‘ini yordamida kuylang.



Mashqni kuylashda nafasni uzmaslikka harakat qiling.

Bunga ikki-uch tovushdan iborat bo‘lgan eng yengil mashqlarni kuylash mumkin.



Asta-sekin murakkablashib boradigan mashqlar ham kuylanadi.

III BOB. ANSAMBL TURLARI

1-DARS. ANSAMBL

“Ansambl” so‘zi fransuz tilidan olingan bo‘lib, **“birgalikda**” degan ma’noni anglatadi. Musiqa asarlarining bir necha musiqachilar tomonidan ijro etilishi ansambl deyiladi.



Ijrochilar soniga qarab ansambllar turlicha ataladi:

Duet – ikkita ijrochi




Trio – uchta ijrochi



Mavzu maqsadi:

1. Ansambl tushunchasi va uning turlarini o‘rganish.
2. Olingan bilimlar bilan ishlashni va fikr yuritishni o‘rganish.
3. O‘qitish usullari**:** suhbat, badiiy so‘z, ko‘rgazmali parchalar ko‘rsatish, she’rlar o‘qish, musiqa tinglash, cholg‘u asboblarida chalish.

Ijrochilar soniga qarab ansambl nomi o‘zgaradi. Buni quyida berilgan jadvalda ko‘rish mumkin:



Musiqa tinglash

KATTA BUG‘U





Qo‘shiqni tinglab, o‘quvchilar bosh qahramonlarning his-tuyg‘ularini his qilishlari kerak. “Katta bug‘u” – bug‘uning quyonni “yomon ovchi”dan qutqarishi haqidagi qo‘shiq. Bug‘u “tosh devor” bo‘lib, uning orqasida yashirinishingiz mumkin. Qo‘shiq qahramonlari turli his-tuyg‘ularni boshdan kechiradilar. Ohangning musiqiy ifodali vositalari tuyg‘ularni yorqin va esda qolarli tarzda ifodalaydi. Qo‘shiq boshida quyon yovuz ovchidan qo‘rqib, bug‘udan yordam so‘raydi. Qo‘shiq oxirida quyon bug‘uga “mo‘jizaviy” najot uchun minnatdorchilik bildiradi. Bug‘u – ishonch timsoli.

Qo‘shiq naqarotsiz kuplet shaklida yozilgan. Har bir jumla 2 o‘lchovli ikkita iboraga bo‘linadi. Bosh qahramonlarning hissiy holatini ta’kidlaydigan ikkita modulyatsiya mavjud. Qo‘shiqning garmoniyasi oddiy. Garmoniya har bir taktda o‘zgaradi: bitta takt uchun – bitta garmoniya.

Dars oxirida siz ushbu qo‘shiqni tinglab, film bilan tomosha qilishingiz mumkin. O‘quvchilardan ohangning tabiatiga ko‘ra harakatlarni tanlashni so‘rang.

N. Seliverstova ovoz va pianino uchun fransuz xalq qo‘shig‘i o‘yinini aranjirovka qilgan.

Savol: Qayta ishlash nima?

Ma’lumot. Musiqada qayta ishlash, asarning asl musiqiy matnini muayyan maqsadlarni ko‘zlagan holda o‘zgartirish, masalan, uni musiqa ixlosmandlari ijro etishi uchun moslashtirish, o‘quv-pedagogik amaliyotda qo‘llash va boshqa kompozitsiyada ijro etish, asboblarda chalish uchun moslashdir. Qayta ishlash ilgari G‘arbiy Yevropada keng tarqalgan bo‘lib, XVI asrgacha xizmat qilgan.

XIX – XX asrlarda moslashtirishda xalq ohanglari katta ahamiyatga ega bo‘lib, ular ko‘proq garmonizatsiya deb atalgan. Xalq kuylarini qayta ishlash ko‘plab mashhur kompozitorlar – Y. Gaydn, L. Betxoven, I. Brams, M. Balakirev, N. Rimskiy-Korsakov, P. Chaykovskiy, A. Lyadov va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan. O‘zbekistonda ham xalq qo‘shiqlarini ko‘povozli ijro uchun qayta ishlash bo‘yicha XX asrda musiqa san’atida juda katta ishlar olib borildi. O‘zbek kompozitorlaridan M. Burhonov, S. Boboyev, B. Umidjonov, Y. Nechayev, N. Sharefiyeva va boshqalar bu sohada ajoyib musiqa asarlarini ijod qilishgan.

Jamoa bo‘lib kuylash

YOSH ASKARLAR QO‘SHIG‘I

S. Barnoyev she‘ri
S. Jalil musiqasi




Tempo di marsha
Yakkaxon
Biz-lar bo-tir yosh jang-chi-
mf
f
7
Xor
Si-nov-lar-da chi-niq-qan, Si-nov-lar-da chi-niq-qan. U-chuv-chi-miz
mf
12
ham tank-chi, mashq-lar-da go' - lib chiq-qan.
f


17
Yakkaxon
Xor
Ol - g'a – bu biz - ning shi - or,
Saf - da tu - ra - miz a - dil.
21
Ti - zi - lib tur - na - qa - tor,
Qa - dam tash - lay - miz da - dil.
f
f
25
sf
sf
sff

Bizlar botir yosh jangchi,
Sinovlarda chiniqqan.
Uchuvchimiz, ham tankchi,
Mashqlarda g‘olib chiqqan.

Naqarot:
Olg‘a – bu bizning shior,
Safda turamiz adil.
Tizilib turnaqator,
Qadam tashlaymiz dadil.

Qurolimiz yog‘ochdan,
Hech kimni qo‘rqitmaymiz,
O‘zbekiston – hur Vatan,
Xizmatiga biz shaymiz.

Do‘stga fido jonimiz,
Ochiq dasturxonimiz.
O‘zimizday mustahkam,
E’tiqod, iymonimiz.

Bor bo‘lsin tinchligimiz,
Bag‘rimiz keng, temir tan.
Bizlarning kimligimiz
So‘rang Amir Temurdan.

Naqarot.
Toblanamiz yoz-u qish,
Ko‘rib qo‘ying, mehmonlar.
Har birimiz Alpomish,
Biz bo‘lajak posbonlar.

Kuylash malakalarini rivojlantirish ustida ish davom ettiriladi. Bu qo‘shiq ohangi ancha keng, qulay diapazonda (***fa1, re2, kat.6).*** Unda ikkita ovoz berilgan. Sinf tayyorgarligidan kelib chiqqan holda ikki ovozli kuylash elementlaridan foydalanish o‘quvchilar garmonik eshituvini rivojlantiradi. Bu qo‘shiq harakatchan aytiladigan qo‘shiqlardan biri. Tez ijro etiladigan qo‘shiqlar ovozning harakatchanligini, ijroning yengil bo‘lishini talab etadi. Tez sur’atdagi qo‘shiqlar ustida ishlashdan asosiy maqsad yengil jarangli tovush, aniq talaffuz, jumlalar orasida nafasni tez o‘zgartirishdir. Bularga erishish uchun quyidagi metodlar tavsiya etiladi:

- qo‘shiqni sekin tempda kuylab o‘rganish;
- do major tonalligida notaga qarab kuylash;
- bo‘g‘inlarda kuylash;
- matnni, asar tempi va ritmida kuylash.

3–4-DARSLAR. CHOLG‘UCHILAR ANSAMBLI

Musiqa asarini birgalikda, bir xil ijro etadigan cholguchilar guruhi “Cholg‘uchilar ansambli” deyiladi. Cholg‘uchilar ansambli turli cholg‘ulardan tuziladi. Unda dutor, rubob, nay, g‘ijjak, chang, tanbur, doira kabi cholg‘ular bo‘lishi mumkin.

Ansambl bir xil cholg‘ulardan ham tuziladi. Masalan: rubobchilar ansambli, dutorchilar ansambli, changchilar ansambli, doirachilar ansambli va shu kabilar.



DUET

TRIO





Qo‘shiq va raqs ansambllari faoliyati yo‘nalishiga ko‘ra farqlanadi.

O‘tilganlarni umumlashtirish, takrorlash va o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlash uchun

O‘qituvchi:
– Jamoamiz qaysi turdagi ansambllarga kiradi?
O‘quvchilar:
– Vokal ...
O‘qituvchi:
– To‘g‘ri. Vokal ansamblda bir necha xonandalar birgalikda qo‘shiq ijro etadi. Uni boshqacha atash ham mumkin, masalan: 2 kishilik ansambl “duet” bo‘ladi. Qani ayting-chi, 3 kishi kuylaganda ansambl qanday nomlanadi?
O‘quvchilar:
– Uchlik.
O‘qituvchi:
– To‘g‘ri. Uchlik – **trio**. Agar 4 ta bo‘lsa-chi?
O‘quvchilar:
– To‘rtlik.
O‘qituvchi:
– To‘g‘ri. To‘rtlik **kvartet** deb ataladi.12 kishigacha qatnashchi bo‘lsa, **vokal ansambl** bo‘ladi. Agar ularning soni 12 dan ortsa, bu xorga aylanadi.

Bolalar uchun savollar:

– Ansambl nima?
– Ansambllarning qanday turlari mavjud?
– Ansambllarning qanday aralash turlarini bilasiz?
– Agar ansambl faqat cholg‘ulardan tashkil topsa, qanday ansambl sanaladi?

Musiqa tinglash

USMONIYA

O‘zbek xalq kuyi





“Usmoniya” kuyi oddiy. Xarakteri, o‘lchovi, ritmik ko‘rinishlari bu asarning marshga yaqinligini ko‘rsatadi. Qadimda bu kuy harbiy yurishlarda ijro etib kelingan, degan fikrlar bor.

Musiqa tinglash faoliyatini tashkillashtirish bo‘yicha oldingi darslarda berilgan ko‘rsatmalar, reja savollari asosida “Usmoniya” kuyini tinglash, suhbat, tahlil o‘tkazilishi zarur. Asar o‘zlashtirilgandan so‘ng bu kuyni kuylash mashqlari, cholg‘ularda jo‘r bo‘lish kabi ijodiy harakatlarda qo‘llash mumkin.

Notalar nomi bilan mashq kuylash

Metodik tavsiya. Nota bilan kuylashni boshlashdan oldin o‘qituvchi bolalar bilan kuyni tahlil qiladi. Kuyni tahlil qilish jarayonida quyidagi masalalar aniqlanishi kerak:

1. Lad va tonallik.
2. O‘lchov.
3. Kuyning intonatsion tuzilish xususiyatlari (harakat yo‘nalishi, notalarning nomi, sakrashlar, ularning katta – kichikligi).
4. Kuyning ritmik tuzilishi xususiyatlari (misolda qanday cho‘zimlar uchraydi, pauzalar bormi, misol taktning qaysi hissasidan boshlanadi va boshqalar).
5. Mashqdagi musiqaviy ibora va nafas olish o‘rni.
6. Mashqni berilgan ritmida nota nomlari bilan o‘qish.

Nota nomlarini aytib kuylash mashqlari.



Jamoa bo‘lib kuylash

BARKAMOL AVLOD BO‘LIB

P. Mo‘min she’ri
N. Norxo‘jayev musiqasi





Vatan bog‘i, mevangman,
Gullaringman – jilvangman,
Yurak qarzim o‘tarman
Sog‘lom bo‘lib, shod bo‘lib,
Barkamol avlod bo‘lib.

Bahra olib mehringdan,
Toblanaman bag‘ringda,
Sovrinlarni yutarman
Sog‘lom bo‘lib, shod bo‘lib,
Barkamol avlod bo‘lib.

Quchog‘ingda kezayin,
Chaman misol bezayin,
O‘z gulimdan tutarman
Sog‘lom bo‘lib, shod bo‘lib,
Barkamol avlod bo‘lib.

Ko‘pdir tengdosh do‘stlarim,
Boqsam, to‘yar ko‘zlarim,
Qo‘shiqlaring aytarman
Sog‘lom bo‘lib, shod bo‘lib,
Barkamol avlod bo‘lib.

Ushbu qo‘shiq o‘zining intonatsion xususiyati, sinkopali ritmi, valsona xarakteriga ko‘ra zamonaviy estrada qo‘shiqlari yo‘nalishiga yaqin. Shuning uchun o‘qituvchi bu asarni o‘rgatishni boshlashdan avval o‘zi asar ijrosini har taraflama o‘rganib, o‘z ustida ishlab, vokal va instrumental ijrochiligini mustahkamlashi, keyin o‘quvchilar bilan ishlashi talab etiladi.Musiqiy jumla va iboralar oxiridagi bir bo‘g‘inning bir necha tovushga aytiladigan ***vokalizatsiya*** joylari (bar-ka-mo-o-ol) juda aniq ritm bilan ijro etilishiga, nafasni jumlaning oxiriga yetkazishga (jumlalar 2 taktli), kantilenali kuylashga erishishi lozim.

Atamalar lug‘ati

Legato – melodiyaning bog‘lanishli harakati, unda bir tovush ikkinchisiga tanafussiz o‘tishi nazarda tutiladi. Cholg‘u musiqasida liga bilan belgilanadigan bu shtrix xor musiqasida qo‘shimcha belgi talab qilmaydi, chunki legato kuylashning tabiiy va odatiy usulidir.

Stakkato – tovushlar bir-biridan alohida, uzib ijro etilishini ko‘rsatuvchi belgi. Xor partiturasi nota matnida stakkato nota ustiga yoki tagiga nuqta qo‘yish bilan belgilanadi.

Non legato – tovushlarni cho‘zib, ammo bog‘lamasdan kuylash belgisi. Partiturada liga bilan bog‘langan notalar ustiga yoki tagiga qo‘yilgan nuqtalar bilan belgilanadi.

Melodiyaning bevosita bog‘liqligi yo‘q. Agar bu shtrix musiqaning kattagina qismiga yoyiladigan bo‘lsa, nuqtalar qo‘yilmaydi, uning o‘rniga non legato deb yoziladi.

Tenuto – tovushlarni bosiq, cho‘zimini oxirigacha aniq holda, tekis kuchda ijro etish kerakligini ko‘rsatuvchi belgi. Nota matnida notalar ustiga yoki tagiga qo‘yilgan chiziqcha yoki qisqartirilgan ten. qo‘yiladi.

Tessitura – xonanda ovozining diapozoniga nisbatan kuy tovushlarining balandlik holati.

Sezuralar (juda qisqa tanaffus) – xor asarlari jaranglanishida matnning alohida qismlarga bo‘linishidan, adabiy matn va musiqiy jumladan kelib chiqadi. Sezuralar ikki xil bo‘lishi mumkin – nafasni qaytadan olish bilan kechadigan va qaytalamasdan kechadigan. Xor partituralarda nafas olish kerakligini ko‘rsatuvchi sezura V bilan belgilanadi.

5–6-DARSLAR. XONANDALAR ANSAMBLI

Ansambl mavzusi davom ettiriladi. Xonandalik ijrosidagi ansambl turlari o‘quvchilarga tanish bo‘lsa-da, atamalarni (**duet, trio, kvartet, kvintet va vokal ansambl**) to‘g‘ri aytish, nomini eslab qolish, yangi badiiy tasavvurlar hosil qilish maqsadida bu mavzu chuqurlashtiriladi[3]. Ayniqsa, xonandalik va cholg‘uchilarning birgalikdagi ansambl turlariga ham e’tibor qaratish lozim.

Duet – ikki xonanda



Kvartet – to‘rt xonanda



[3] Cholg‘u ansambllarining ishtirokchilari soni bilan bog‘liq atamalar xonandalik ijrochiligida ham saqlanib qoladi. Shuning uchun ularni qaytarishni lozim topmadik.

Musiqa tinglash

VARRAGIM

P. Mo‘min she’ri
N. Norxo‘jayev musiqasi





Uchganida varragim
Zavqqa to‘lar yuragim.
Keng osmonda yelkanday
Suzib ketdi varragim.

Uchganida goh-goh,
Har tomonga tashlar shox.
Talay varrakchalarni
Suzib ketdi varragim.

Dardaragi varanglar,
Ana, ana, qaranglar,
Uchayotgan quroqdan
O‘zib ketdi varragim.


Rosa uchdi osmonga,
Lekin qoldim armonda:
Kuchli shamol turganda
O‘zib ketdi varragim.


Tinglangan qo‘shiqni quyida keltirilgan sxema asosida bolalar bilan musiqiy-pedagogik tahlil qilinadi. Bunda ifoda vositalaridan qaysi biri shu qo‘shiqda yetakchi vosita bo‘layotgani aniqlanadi (ya’ni,qo‘shiq obrazi, xarakterining o‘ziga xos xususiyati qaysi ifoda vositasi orqali yorqinroq namoyon bo‘lishi aniqlanadi.


Qo‘shiq tahlili jarayonida qo‘llash uchun “Eyler doiralari” sxemasi


Yuqorida keltirilgan “Eyler doiralari” deb atalgan geometrik sxemalar musiqiy tushuncha va atamalar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liklikni ko‘rish va tushunishga yordam beradi. Masalan, “Bastakor – ijrochi – tinglovchi” uchligidagi bog‘liqlikini ko‘rib chiqamiz. Bastakor musiqa yozadi. Ijrochi (sozanda, xonanda) bastakor asarini maromiga yetkazib ijro etadi. Musiqa madaniyatiga ega tinglovchi asarni tinglab, emotsional qabul qiladi. Bu aytib o‘tilgan uchlik orasidagi mantiqiy bog‘liklik shundaki, ularning har biri ijod qiladi. Bastakor ichki olamidan kelib asar yaratgan bo‘lsa, ijrochi o‘z mahorati tufayli bastakor asarini talqin qiladi. Ulardagi ijodkorlik qobiliyati o‘z-o‘zidan ma’lum. Bu o‘rinda tinglovchiga alohida to‘xtalamiz. Musiqa tinglash – asarni tushunish, idrok etish, undagi obrazlarni tafakkur eta olishdir. Bunda uch tomonlama ijod hosil bo‘lishini ko‘rish mumkin. Darsda musiqa tinglash faoliyatining maqsadi ham yosh avlodni madaniyatli tinglovchi qilib tarbiyalashga qaratilgan, aslida.


Sxema ko‘plik va uning qismlari orasidagi munosabatlarni tasvirlashga, mantiqiy bog‘lanishlarni ko‘rishga imkon beradi. Ko‘rgazmalilik fikrlash yo‘lini soddalashtiradi va javob olishni tezlashtiradi.













Jamoa bo‘lib kuylash

KULCHA NON

P. Mo‘min she’ri
I. Hamrayev musiqasi



Oyim yopdilar kulcha,
Moy kulcha, moy kulcha.
Ye dedilar to‘yguncha, to‘yguncha.
Kulcha o‘xshar gulchaga, oh, oh, oh.
Yuzim o‘xshar kulchaga, oh.

Naqarot:
Kulcha non-u kulcha non,
Ko‘rinishi gulcha non.
Kulcha non-u kulcha non,
Ko‘rinishi gulcha non.

Shirinligi o‘zimday, o‘zimday,
Issiqligi yuzimday, yuzimday.
Keling, o‘rtoqlar, yeymiz, oh, oh, oh.
Oyimga rahmat deymiz, oh!

Qo‘shiqni o‘rganishda o‘qituvchi bolalarga dirijyorlik ishoralarini – “boshlash”, “birgalikda”, “tovushni uzish”, “Forte”, “piano” kabilarni ko‘rsatib, ularga amal qilish kerakligini uqtirib boradi. Bolalar ovozida jarangdorlik, intonatsion aniqlik bo‘lishiga, sezuralar (nafas olinadigan joylar) to‘g‘ri bo‘lishiga e’tibor beradi.

7–8-DARSLAR. SH. YORMATOV NOMIDAGI “BULBULCHA” BOLALAR XORI VA RAQS ANSAMBLI

“BULBULCHA” – O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi qoshidagi bolalar katta xori. O‘zbekistonda eng mashhur va yirik bolalar xor jamoasi. 1970-yili tashkil etilgan, 1982-yildan “Bulbulcha” nomi berilgan. Tarkibida tayyorlov, kichkintoylar, o‘rta, o‘smirlar, raqs, doirachilar, folklor guruhlari mavjud. Xor jamoasi repertuaridan Yevropa xor san’ati namunalari, ayniqsa, o‘zbek kompozitorlari – D. Zokirov, S. Yudakov, K. Abdullayev, A. Muhammedov, F. Qodirov, M. Burhonov, R. Vildanov, R. Abdullayev, F. Alimov, N. Norxo‘jayev, A. Mansurov, D. Omonullayeva, M. Otajonov asarlari keng o‘rin olgan. “Bulbulcha” respublika hamda Rossiya, Finlandiya, Estoniya, Turkiya mamlakatlarida o‘tkazilgan xalqaro xor festivallari qatnashchisi va sovrindoridir *(1981,1983,1985)*.

Xususan,Yugoslaviyaning Skoplye shahrida “Oltin bulbulcha”, Belorussiyaning Minsk shahrida bo‘lib o‘tgan Xalqaro bolalar xori festivalida (1989) g‘oliblikni qo‘lga kiritgan.

Ansamblga O‘zbekiston xalq artisti **Shermat Yormatov (1939–2021)** rahbarlik qildi. 1970-yillardan boshlab o‘zbek bolalar qo‘shig‘i hamda xor san’atiga bag‘ishlangan “Qo‘shig‘im – jon qo‘shig‘im” teleko‘rsatuvini uzoq yillar davomida olib bordi. Sh. Yormatov “Sog‘lom avlod uchun” ordeni, “O‘zbekiston xalq artisti” faxriy unvoniga sazovor bo‘lgan.



Jamoa bo‘lib kuylash

BUGUN YANA “BESH” OLDIM

P. Mo‘min she’ri
Sh.Yormatov musiqasi




10
mf
Qut-lang, ona-jon, me-ni___ Bu-gun ya-na "besh" ol-dim.
mp
mf
13
Bu-gun ya-na "besh" ol - dim.
mf
16
mp
Se-vib qol-dim ilm - ni,


19
mf
Sev-dim o'qi-tuv - chim-ni.
Ko'-ring kun-da-li-gim - ni.
mf
mp
J
Bu-gun yana "besh" ol-dim.
Vaq-ti- da_dars qil-gan-dim.
f
mf
Vaqt qad - ri-ni bil-gan - dim.
Men-ga ha-vas qil-mas kim?


27
f
Bu - gun yana "besh" ol - dim. O's-gan - day bo'l-di bo'-yim,
Eh, shi-rin xa-yol – o'-yim, Tush-gim ke-la - di o'-yin...
f
32


35
mf
Tush-gim ke-la - di o'-yin, Bu-gun ya-na "besh"ol-dim,
mp
mf
38
f
Bu-gun ya-na "besh" ol - dim, Bu-gun ya-na "besh" ol - dim,
40
ff
Hey

Takrorladim harflarni,
Ustozim dedi: “Balli!”
Qutlang, onajon, meni,
Bugun yana “besh” oldim. *(2 marta)*

Vaqtida dars qilgandim,
Vaqt qadrini bilgandim.
Menga havas qilmas kim?
Bugun yana “besh” oldim. *(2 marta)*

Sevib qoldim ilmni,
Sevdim o‘qituvchimni.
Ko‘ring kundaligimni:
Bugun yana “besh” oldim. *(2 marta)*

O‘sganday bo‘ldi bo‘yim,
Eh, shirin xayol-o‘yim,
Tushgim keladi o‘yin...
Bugun yana “besh” oldim. *(2 marta)*

Qo‘shiqni o‘rganish. O‘rgatish jarayonida qo‘shiqning kuyi va adabiy matnini takrorlashning o‘zi yetarli emas. Tovush jarangdorligi, harakatchanligi, to‘g‘ri yo‘nalishi ustida ish olib borish zarur. Asarni kuylash jarayonida ba’zan uni o‘quvchilar uchun eng qulay bo‘lgan unli tovushda aytish foydali va ko‘plab vokal texnik qiyinchiliklarni yengib o‘tishga imkon beradi. Professional xonandalar (“Bulbulcha” xori) ijrosidagi audioyozuvlarni qayta-qayta tinglash katta yordam beradi.

Atamalar lug‘ati

Ton berish – dirijyor ijro etadigan jo‘rsiz asarning tonalligiga xorni sozlash uchun bir yoki bir necha tovushlarning past ovozda dastlabki kuylanishi.

Nafas belgisi – (vergul yoki “V” belgisi) – barcha vokal asarlar nota yozuvida (xor partitura, partiya)da nafas almashuvi belgisi.

Repertuar – konsertlarda ijro etish yoki o‘quv jarayonila o‘rganiladigan asarlar majmui.

Repetitsiya – mashg‘ulot, tayyorgarlik. Konsert dasturi yoki spektaklni tayyorlashda dirijyorning ijrochilar bilan o‘tkazadigan mashg‘ulotlari.


Ritm – tuvushlarning uzun-qisqaligi va urg‘ularning almashib kelishiga asoslangan musiqiy tushuncha, har bir musiqa asari o‘z ritmiga ega bo‘ladi.

9–10-DARSLAR. “TOMOSHA” BOLALAR MUSIQIY TEATR-STUDIYASI

“Tomosha” bolalar folklor teatr-studiyasi 1988-yilda tashkil etilgan. Studiya o‘z ijodining 30 yili davomida yosh iste’dodlarning bir necha avlodini voyaga yetkazdi. Ushbu kungacha teatr 4 yoshdan 14 yoshgacha bo‘lgan bolalarni qamrab oluvchi, Markaziy Osiyoda yagona teatr-studiya hisoblanadi. U Niderlandiya, Koreya, Germaniya, Hindiston, Fransiya va Xitoyda bo‘lib o‘tgan xalqaro festivallarda g‘oliblikni qo‘lga kiritgan. Shuningdek, “Ochiq Yevropa” nufuzli festivalining eng yuksak mukofoti – “Gran-pri”ga sazovor bo‘lgan. “Tomosha” teatr-studiyasi davlat miqyosidagi bayram tadbirlarida muntazam ishtirok etadi. “Prezident archasi” bayramlarida namoyish etiladigan spektakllar bolalarga doimo manzur bo‘lib kelmoqda.

Prezidentimiz tashabbusi bilan teatr san’atini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarga asosan, “Tomosha” bolalar teatri va bosh homiy “Aloqabank” orasida “Do‘stlik klubi” tuzildi. Shunga muvofiq poytaxtimizdagi Matbuotchilar ko‘chasida







studiyaning zamonaviy binosi barpo etildi. 2019-yil 1-iyun – Xalqaro bolalar kuni arafasida uning tantanali ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Yaqinda “Tomosha” bolalar musiqiy teatr-studiyasi direktori, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Nodira Qurbonova “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi” faxriy unvoni bilan mukofotlandi.

“Tomosha” bolalar musiqiy teatr-studiyasi a’zolari



Musiqa tinglash

BUVIJON

K. Turdiyeva she’ri
N. Qurbonova musiqasi



Nega sizni har qachon
“Buvi” deymiz, buvijon?
Axir, buvilar bari
Bo‘lishi kerak qari.

Dadamizga onasiz,
Eng mehribon, donosiz.
Bizni ko‘rsangiz qachon,
Qilasiz achom-achom.


Naqarot:
Doim shunday yosh bo‘ling,
Hammamizga bosh bo‘ling.
Erkalaysiz bizlarni,
Juda sevamiz sizni. *(2 marta)*

Jamoa bo‘lib kuylash

BOLARI


P. Mo‘min she’ri
A. Mansurov musiqasi





2- va 3-bandlarda so‘z kelishiga qarab ohang usullarini o‘zgartirish mumkin.







Bolarining hech bekori bo'lmaydi,
Bolarining hech beori bo'lmaydi.

Naqarot:
Ishlashadi bolarining
Bolalari, xolalari.
Harakatda bolarining
Og'alari, tog'alari.

Bolarilar vazifasin
Bajarishar, bari ishlar,
Bajarishar, bari ishlar.
Bolarilar sira-sira erinmas,
Ish paytida xonasida ko'rinmas.

Naqarot:
Shu sababdan bolarilar asali
Bo'lar ekan juda-juda mazali.

IV BOB. KOMPOZITORLAR BOLALARGA

1–2-DARSLAR. KOMPOZITORLAR HAQIDA TUSHUNCHA

Kompozitor Mutal Burhonov (1916–2002)

Kompozitor – musiqa asarlarini yaratuvchi ijodkor. U o‘zining ichki his-tuyg‘ulari, atrof voqelikdan olgan hissiyotlarini musiqa tilida bayon etadi. Kompozitorlar ko‘p-ovozli musiqa va sahna asarlarini yaratadi.

Mutal Burhonov – O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasining muallifi, bir qancha Davlat mukofotlari sovrindori, atoqli kompozitor. U o‘zining betakror asarlari bilan O‘zbekiston musiqa san’atining rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shdi. Mutal Burhonovning mashhur asarlari – “Maftuningman” filmi musiqasi, “Ey bulbul”, “Muhabbat alangasi”, “Gullar o‘lka”, “Go‘zal Farg‘ona”, “Vatan qo‘shig‘i”, “Tabassum qilmading”, “Yurak ovozi”, “Sen bo‘lsang” romans va qo‘shiqlari, “Keldi...”, “Nega rad etdim?”, “Shoir orzusi”, “Bahor qushlari” vokal balladalari, simfonik orkestr uchun asarlari, romans-she’rlari, vokal-simfonik syuitalari nafaqat o‘zbek, balki jahon musiqa san’atining oltin fondiga kirdi.



Mutal (Mutavakkil) Burhonov

Mutal Burhonov bolaligida Fitrat bilan yaqindan tanish edi, shu bous uning uyiga tez-tez borib turdi, u yerda Buxoro, Samarqand, Farg‘ona, Toshkentdan Cho‘lpon, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, mashhur sozandalar, ijrochilar, musiqashunos-olimlar bilan uchrashdi.

Mutal Burhonov birinchilardan bo‘lib ko‘plab o‘zbek, qoraqalpoq, uyg‘ur, qozoq, afg‘on, tojik va eron xalq qo‘shiqlarini xor va yakkaxon kuylash uchun mohirona qayta ishladi va bu musiqa san’atini ancha boyitdi.

M. Burhonov o‘zbek xalqining mumtoz merosi – maqomlarni asrab-avaylash yo‘lida katta mehnat qildi. U asosan vokal yo‘nalishida ijod qilgan bo‘lsa-da, o‘quvchi, yakkaxon, aralash xor va yirik simfonik orkestrga mo‘ljallangan “Alisher Navoiy” qasidasi kompozitor ijodining gavhari hisoblanadi.

2016-yili O‘zbekistonda buyuk bastakor, davlat madhiyasi musiqasi va ko‘plab ajoyib asarlar muallifi Mutal Burhonov tavalludining 100 yilligi nishonlandi.

Mutal Burxonovning milliy musiqa san’ati va madaniyati rivojiga qo‘shgan ulkan hissasi munosib baholandi. O‘zbekiston Prezidenti farmonlari bilan ijodkor “Mehnat shuhrati”, “El-yurt hurmati” va “Buyuk xizmatlari uchun” ordenlari bilan taqdirlangan.

Musiqa tinglash

DO‘PPI TIKDIM

Turob To‘la she’ri
Mutal Burhonov musiqasi




13
de-mang, za-ri til-lo - dan. Ji-lo ber-sam
mf
mf
p
p
17
gul-la-ri - ga, ji- lo ber-sam gul-la-ri - ga,
mf
mf
pp
20
Ko' -zing o-lur be-zak- la-ri til lo-dan.
p
mp
mf


til- lo- dan.
Ko‘- zing o - lur
be-zak - la- ri
til- lo - dan.
pp
pp
p
mp
mf
p
mf
til- lo - dan.
Gu- li - lo - la, gu- li -
mf
Allegro Moderato
p
mf
pp


lo - la
Ko‘-zing o – ta-shi-ga
ol - ma u - ni lo - la,
Ko‘-zing o - ta-shi-ga
46
sol - ma u - ni lo - la,
Di-l-u jo - ni bi lan no - la qi - lur,


51
f
mf
no - la, di-l-u jo - ning i - la kuy-la, go'- zal Lo- la! Gu- li - lo - la, gu- li -
ff
p
mf
pp
56
mf
p
lo - la Ho! - - - - - - -
mf
p
59
pp
ppp
poco rit
pppp
poco rit
pp
ppp
pppp

Do‘ppi tikdim ipaklari tillodan,
Ipaklari demang, zari tillodan.
Jilo bersam gullariga,
Jilo bersam gullariga,
Ko‘zing olur bezaklari tillodan.

Gulilola, gulilola,
Ko‘zing otashiga olma uni, Lola!
Ko‘zing otashiga solma uni, Lola!
Dil-u joni ila nola qilur Lola,
Dil-u joni ila kuyla, go‘zal Lola.
Gulilola, gulilola.



Ushbu qo‘shiq “Maftuningman” kinofilmiga yozilgan. Birinchi ijrochisi – taniqli o‘zbek aktirisasi Klara Jalilova.

Bu qo‘shiqni tinglagandan so‘ng uning obrazi, mazmuni, kuyining xarakteri, taniqli ijrochisi haqida maroqli qilib gapirib berish, suhbat o‘tkazish, qizlar guruhi bilan raqs elementlarini bajarish mumkin. O‘g‘il bolalar chapakda jo‘r bo‘ladi. M. Burhonovning bu asari o‘zbek qo‘shiqchiligining “oltin fondi”ga kirgani haqida so‘zlab berish bolalarda katta emotsional ta’sirchanlikni o‘stirishga xizmat qiladi.

Jamoa bo‘lib kuylash

SHAFTOLIGA SAVOLIM

P. Mo‘min she’ri
N. Norxo‘jayev musiqasi





Shaftolim, oh, shaftolim,
Qizil-u oq shaftolim.
Hamma menday sevadi,
Pishganda maza, bolim.

Asta aytib beraqol,
Seni topgan qay olim?
Indamadi shaftolim,
Qiyin ekan savolim.

3–4-DARSLAR. KOMPOZITOR FARHOD ALIMOV (1947–2014)



Kompozitor Farhod Alimov 1947-yil 23-oktyabrda Toshkent shahrida dunyoga keldi. 1954-yili Y. Oxunboboyev nomidagi 45-o‘rta ta’lim maktabiga o‘qishga bordi. Farhodjonning musiqaga qiziqqanini sezgan ota-onasi uni 1959-yili R. Gliyer nomidagi respublika musiqa maktab-internatiga o‘tkazdilar. F. Alimov 1965-yili maktabni muvaffaqiyatli tugatib, Toshkent davlat konservatoriyasining o‘zbek xalq cholg‘ulari fakultetiga imtihonsiz qabul qilindi. Konservatoriyani 1970-yilda g‘ijjak bo‘yicha bitirib, O‘zbekiston radiosi qoshidagi o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestriga sozanda bo‘lib ishga kirdi.

Orkestrda ishlab yurgan paytlarida musiqa bastalay boshladi. Kompozitorlik malakasiga ega bo‘lish uchun 1972-yili konservatoriyaning tayyorlov kurslarida, so‘ng asosiy bosqichida taniqli kompozitor B. Gienkoda ta’lim oldi.

1975-yildan A. Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat institutida katta o‘qituvchi, 1993-yildan dotsent, 1995-yildan e’tiboran esa Toshkent davlat konservatoriyasi orkestr dirijyorligi kafedrasi dotsenti lavozimida ishladi.

F. Alimov musiqa san’atining deyarli barcha janrlarida samarali ijod qildi. U simfoniya, ovoz va simfonik orkestr uchun vokal-simfonik poema, kantata, simfonik poema, uverturalar, jo‘rsiz xor uchun ko‘plab asarlar yaratdi.

BOLALAR UCHUN YARATGAN ASARLARI

“Sariq jo‘jalar”, “Oyijonim allasi”, “Yoz fasli”, “Yashasin do‘stlik”, “Chaqqon bola”, “Oppoq qayin”, “Ahillik – do‘stlik”.

Shodiyona

Farhod Alimovning bastalagan asarlari

Ona sayyorani asrang

To‘yona

Maftuningman, Toshkent

Muhabbatnoma

Musiqa ijodkorligi

SARIQ JO‘JA

O. Po‘latov she’ri
F. Alimov musiqasi




4
Solist
Xor
Piano
Jo'-ja-la-rim-ning
pat-la-ri sa-riq,
p
Qa-rang, ko'z-la-ri
mi-so-li ta-riq.
f
Jo'-ja-la-rim-ning
10
pat-la-ri sa-riq,
Qa-rang. ko'z-la-ri
mi-so-li ta-riq.


Har kun u-lar-ga
Yo'-qol-sa bi-ri,
don-dun be - ra-man,
to - pa-man shu on,
Har kun u-lar ga
Yo'-qol-sa bi-ri
Ba-ri but-mi deb
Jo'-ja as-rash-ning
sa-nab ko'-ra-man,
zav-qi bir ja-hon.
don-dun be - ra-man,
to - pa-man shu on,
A
Jo' - ja jo' - ja.
ff
Ba - ri but - mi deb
Jo' - ja as - rash-ning
sa - nab ko' - ra - man. Hey!
zav - qi bir ja - hon.


Jo'-ja-la-rim-ning
pat-la-ri sa-riq,
Qa-rang, ko'z-la-ri
25
1.
2.
mi-so-li ta-riq.
mi-so-li ta-riq.
Jo'-ja, jo'-ja,
Jo'-ja-la-rim-ning
pat-la-ri sa-riq,
Qa-rang, ko'z-la-ri.



Asarni tinglab, so‘zlari kuylari, shakli (band-naqarot), xarakteri, ijro sur’atlari tahlil qilinadi. O‘quvchilarga qo‘shiqni tinglab, mazmunini so‘zlab berish, shu qo‘shiqqa mos raqs harakatini bajarish taklif etiladi.

Atamalar lug‘ati

Solfejiolash – notalar nomini aytib kuylash. Xorda keng qo‘llanadi. Xor partiyalarini o‘rganish ko‘pincha solfejio bilan boshlanadi.

Tessitura – har qanday cholg‘u yoki xonanda ovozining diapazoniga nisbatan kuy tovushlarining balandlik holati.

Frazirovka – musiqiy asar ijrosida ayrim ibora, jumlalarni aniq va ma’noli etib ko‘rsatish, ifodalash.

Fermata – tovush, ma’lum akkord yoki pauzani cho‘zish.

Jamoa bo‘lib kuylash

OPPOQ QANDIM

P. Mo‘min she’ri
F. Alimov musiqasi




22
te-rib, te-rib, Sen ke- ta - san tez- da e-rib.
mf
26
Op-poq qan-dim, yum-shoq qan-dim, Op-poq qan-
31
poco rit.
mf
dim, yum - shoq qan - dim, Op-poq qan-
p
35
a tempo
mp
dim.
ox.
pp
sff

Ushbu qo‘shiq ijro jihatidan 3- sinf uchun berilgan ko‘pigina qo‘shiqlardan birmuncha murakkabligi, yorqinligi, ritmida estrada xonandaligi unsurlariga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Shirinlik yaxshi ko‘radigan bolaning tilidan yozilgan she’rning o‘zi ham juda obrazli. Band-naqarot shaklida, major tonalligida yozilgan. Tessitura va diapazon qulay. Ohang yo‘lida nolasimon kuy, ritmida mayda cho‘zim va sinkopalar uchrashi qo‘shiq ijrosi ustida mas’uliyat bilan ishlashni taqozo etadi. **“Sen-ke-e-ta-san te-ez-da-a-e-rib”** so‘zlarida ketma-ket bitta bo‘g‘inga ikkita tovush kelishi e’tibor talab etadi. Chunki bolalar ikkinchi tovushni uncha anglay olmaydilar va uni kuylamaydilar. Shuning uchun o‘qituvchi bu qo‘shiqni o‘rgatishda melodiyani “du” bo‘g‘inida kuylatishi, aniqlik uchun so‘zlarini qo‘shiq ritmida ayttirishi maqsadga muvofiq.

5–6-DARSLAR. KOMPOZITOR AVAZ MANSUROV



Avaz Mansurov – o‘z uslubiga ega taniqli o‘zbek kompozitori. U musiqaning ko‘pgina janrlarida, ayniqsa, bolalar qo‘shiqchiligida barakali ijod qilib kelyapti. “Bulbulcha” bolalar xori jamoasi uning 100 dan ortiq qo‘shiqlarini ijro etgan. “Hur respublika”, “Muzqaymoq”, “Tomchilar qo‘shig‘i”, “Baxtli bolalik”, “Dangasa”, “Dakan xo‘roz”, “Quvnoq bolalar”, “Bolari”, “Jonajon kapalak”, “O‘zbekiston-onajon”, “Kitob, mening do‘stimsan”, “Qo‘zichog‘im – o‘yinchoq”, “Teraklarim, tollarim”, “Ohanglarda ertaklar” shular jumlasidan.

A. Mansurov bir necha musiqiy sahna asarlarining ham muallifidir. U “O‘zga sayyoralik robot” (1984), “Hayvonlar sultoni” (1988) bolalar operalarini, “Ilonshoh va uning amaldorlari haqida” (1982), “Sharq afsonasi” (1983) baleti, 20 ta musiqali spektakl yaratdi.

Avaz Mansurov musiqa san’ati va ta’limini rivojlantirishdagi faol xizmatlari uchun 1986-yili O‘zbekiston yoshlar mukofoti sovrindori deb topildi, 1992-yili O‘zbekiston Respublikasi faxriy yorlig‘i, Xalq ta’limi va Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirliklarining faxriy yorliqlari bilan taqdirlangan.



Musiqa tinglash

BU CHAMANZOR KIMNIKI?

X. Qayumov she’ri
A. Mansurov musiqasi




Naqarot:
17
Shod-li-gi va naq-shi-miz.
Bu cha-man-zor kim-ni-ki?
Bu cha-man-zor kim-
22
ni-ki?
Bu cha-man-zor, bu cha-man-zor,
1.3
Bu cha-man-zor biz-ni-ki,
27
2.4.
Bu cha-man-zorbizni-ki.
Iz-la-ri-dan gul u-nar, baxt-li o'-g'il-qiz-ni-ki.
Kim-ni-ki?Biz-ni-ki!
32
Kim-ni-ki? Biz-ni-ki!
Bu cha-manzor biz-ni-ki!
Tugallash uchun
Bu cha-man-zor,
bu cha-man-zor,



Gulbog‘larning chiroyi
Qo‘shig‘imiz, raqsimiz.
Bizlar nurli diyorning
Shodligi va naqshimiz.

***Naqarot*:** Bu chamanzor kimniki?
Bu chamanzor bizniki!
Bu chamanzor, bu chamanzor,
Bu chamanzor bizniki!

(gapirib...) Izlaridan gul unar
Baxtli o‘g‘il, qizniki.
Kimniki? Bizniki.
Kimniki? Bizniki.

(kuylab...) Bu chamanzor bizniki!
Taronalar yangrasin,
Nurga to‘lsin yer, samo.
Kuyimiz jaranglasin,
Tinchlik bo‘lsin doimo.

Naqarot.

Jamoa bo‘lib kuylash

MUZQAYMOQ

X. Qayumov she’ri
A. Mansurov musiqasi




soz qay - moq.
As - ta - gi - na, a - vay - lab, a - vay - lab,
Chay - na - mas - dan a - tay - lab, a - tay - lab,
Sol - ga - nim - da og'-zim - ga
E - rib ke - tar bir zum - da,
E - rib ke - tar bir zum - da.
22
25
Soz qay - mo - g'im, muz - qay - moq.

7–8-DARSLAR. KOMPOZITOR XURSHIDA HASANOVA



O‘zbekiston kompozitorlari uyushmasi a’zosi, iste’dodli kompozitor Xurshida Hasanova 1967-yili 7-sentabrda Toshkent shahrida tug‘ilgan. U bolaligidan san’atga, jumladan musiqaga juda qiziqqan. Maktab yoshida T. Sodiqov nomidagi shahar bolalar musiqa maktabining fortepiano va kompozitorlik sinfida o‘qiydi. Keyinchalik Hamza nomidagi musiqa bilim yurtini tamomlab, 1986–1991-yillarda M. Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyasida kompozitorlik mutaxassisligi bo‘yicha tahsil oldi. U Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining musiqa fakulteti o‘qituvchisi, Toshkent davlat konservatoriyaning musiqa nazariyasi kafedrasi o‘qituvchisi, 1999-yildan “Sevinch” vokal studiyasi musiqa rahbari, 2012-yildan konservatoriya dotsenti lavozimlarida ishlab kelmoqda. 2018-yildan O‘zbekiston televideniyasi “Quvnoq notalar” teleko‘rsatuvlarini olib boradi.

Kompozitor X. Hasanova o‘z ijodida bolalar uchun asarlar yaratishga katta e’tibor qaratib, 150 dan ortiq estrada va bolalarga atalgan qo‘shiqlar yozdi. “Sog‘lom avlod”, “Kamalak”, “Humo qushi”, “Majnuntol”, “Lola”, “Hayot” kabi asarlari shular jumlasidan.

X.Hasanova bir qator xalqaro va respublika ko‘rik-tanlovlari sovrindoridir. U 2003- va 2009-yilda Italiyaning San Remo shahrida o‘tgan bolalar qo‘shiq festivalida “Shodiyona” qo‘shig‘i uchun Gran-Pri mukofoti, 2013-yilda “E’tirof” mukofotining “Yilning eng yaxshi bastakori” nominatsiyasi sohibi bo‘lgan. 2018-yili X. Hasanova “Do‘stlik” ordeniga sazovor bo‘ldi.

Musiqa tinglash

BOG‘ ICHIDA

I. Jiyanov so‘zi
X. Hasanova musiqasi




9
Bog‘ i-chi-da gul o-chi-lib-di, Bo‘-yi har ta-raf-ga so-chi-lib-di.
13
Chi-ro-yi-ni ko‘-rib ka-pa-lak - lar Men - dan av - val
2
16
1.
2.
bo-g‘im - ga ke - lar.
Gul g‘un-cha-si - ni



Naqarot:

Bog‘ ichida gul ochilibdi,
Bo‘yi har tarafga sochildi.
Chiroyini ko‘rib kapalaklar
Mendan avval bog‘imga kelar.

Gul g‘unchani uzgim kelar,
Uning suratini chizgim kelar.
Qo‘limga ip, igna olib, so‘zanaga
Chamanzorni chizgim kelar o‘zim yana.

Naqarot.

Qop-qora sochim sunbulaga
O‘xshar, kipriklarim – maysalarga.
Meni hamma o‘xshatadi faqat gulga,
Guldek go‘zal orzularim to‘lar dilga.

Naqarot.

Bu qo‘shiqni tinglash jarayoni o‘quvchilarda qiyinchilik tug‘dirmaydi. Chunki qo‘shiq matni asarning dasturidir. Ya’ni, qo‘shiqning mazmun-mohiyati uning nomidan, adabiy matnidan “mana, menman” deb ko‘rinib turibdi. O‘qituvchining birinchi galdagi vazifasi qo‘shiqni ifodali, bolalarga emotsional ta’sirli bo‘ladigan qilib kuylab berish yoki audioyozuvda qo‘yib eshittirishdir. So‘ng bolalar bilan suhbatda qo‘shiqning badiiy obrazi – go‘zal bolalikning “guldek orzulari” ekanligini singdirishidir. I. Jiyanov so‘zlari asosida aytilgan qo‘shiqning bu obrazi kompozitor X. Hasanova tomonidan zamonaviy ritm, garmoniya, milliy estradaga xos kuy ohangdorligi, tez sur’ati kabi musiqa ifoda vositalari orqali ochib berilgan.

Qo‘shiqni nafaqat eshitish, balki jamoa bo‘lib kuylash mumkin. Asar bolalar ijrochilik tajribasini boyitishga va kuylash malakalarini o‘stirishga xizmat qiladi.

Metodik tavsiya. Musiqiy asarlarni tinglash, idrok etish, mazmuni va kayfiyatini anglash jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarga yordam berishi lozim. Buning uchun o‘qituvchi:

- o‘quvchilarni tinglanayotgan asarga hissiy tayyorlaydi;
- o‘quvchida madaniyatli tinglovchi malakalarini shakllantiradi;
- musiqaning mazmuni, ifoda vositalarini oddiy tahlil qilishga o‘rgatadi;
- musiqa haqida fikr yuritish, asarga estetik baho berish ko‘nikmalarini hosil qiladi;
- o‘tilgan asarlarni jaranglashidan tanib eslashni, asarning nomi va kompozitorlarining nomlarini bilishni o‘rgatadi;
- tahlil jarayonida ifoda vositalarini oddiydan murakkabga qarab borib, o‘zlashtirish.

Tinglashdan oldin bolalar diqqatini jamlash, faollashtirish uchun o‘qituvchi o‘quvchilar oldiga ularning musiqiy tayyorgarligi darajasidan kelib chiqqan holda turli vazifalar qo‘yishi mumkin. Masalan:

1. “Hozir siz O‘zbekistonning taniqli kompozitori X. Hasanovaning “Bog‘ ichida“ qo‘shig‘ini tinglaysiz. Qo‘shiq kuyi, so‘zlarini diqqat bilan tinglang va o‘ylab ko‘ring – nima uchun asar shunday nomlanadi?”

2. “Qo‘shiqni diqqat bilan eshiting va ayting – asarda bir kayfiyat aks etadimi yoki bir necha kayfiyat berilganmi?”

Bunday vazifa – savollar bolalarda musiqani tinglash xohishini uyg‘otadi, musiqiy idrokni faollashtiradi. Bolalar asar mazmuni, musiqiy nutq vositalarining ifodaviyligini anglashga harakat qiladilar.

Jamoa bo‘lib kuylash

SHIRIN-SHIRIN

I. Jiyanov she’ri
X. Hasanova musiqasi




19
O-chil - gim ke - lar, o-chil - gim ke - lar.
23
Bo-g'im - da g'un-cha-dek o-chil - gim ke - lar.
27
Shi-rin, shi-rin so'-zim - ga, Jay-ron-gi-na ko'-zim-ga.
31
Of-tob ku-lib bo-qa - di Oy-dek - ki-na



Osmonda yulduzchalar,
Yonida bo‘lgim kelar.
Bog‘imdagi g‘unchalar
Bilan ochilgim kelar.

Bahor bilan, yoz bilan
O‘ynab yurgim keladi.
Jaranglagan soz bilan
Qo‘shiq aytgim keladi.

Naqarot:
Shirin-shirin so‘zimga,
Jayrongina ko‘zimga.
Oftob kulib boqadi
Oydekkina ko‘zimga.

Qo‘shiq go‘zal bahor fasli, uning bolalarga yoqimliligi, tabiat go‘zalligidan bolalar quvonishini aks ettiruvchi musiqa obraziga ega.

Qo‘shiq ijrosi qisqa, tez olingan nafas hamda yengil jarangdor tovush talab etadi. Sakkiztalik va ba’zida uchraydigan o‘n oltitalik cho‘zimlardagi 6/8 o‘lchovdagi kuyda undoshlarni aniq va qisqa talaffuz bilan, unlilarni esa cho‘zib kuylashga erishish lozim. Mi minorda yozilganligi kuyga mayinlik, raqsonalik beradi.

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA MUSIQA MADANIYATI FANINI O‘QITISHGA DOIR METODIK TAVSIYALAR

O‘quvchilar ovozi rivojlanishining yosh davrlari bo‘yicha xususiyatlari

Insonning kayfiyatiga qarab ovoz yoqimli, quvnoq, jarangdor, sho‘x, bo‘g‘iq, shirasiz, yoqimsiz bo‘lishi mumkin. Ovoz manbai bo‘lib tebranuvchi ovoz pardalari xizmat qiladi. Ovoz pardalari tor misol hiqildoqda tortilgan bo‘lib, old qismi qalqonsimon tog‘ayga, orqa qismi esa ikkita shoxsimon tog‘aylarning o‘simtalariga mustahkamlangan. Odam jim turganda ovoz pardalari ochiq holda turadi. Gapirish yoki kuylash paytida ovoz pardalari birikadi va o‘pkadagi nafas chiqish paytida bu pardalarga bosim bilan ta’sir qilib, ularni tebrantiradi. Ovoz pardalarining tebranishi va ularning o‘rtasidan o‘tuvchi havo tovush to‘lqinlarini hosil qiladi. Tovush balandligi shu tovush to‘lqinlariga bog‘liq: tebranish soni qanchalik ko‘p bo‘lsa, tebranish to‘lqinlari shunchalik qisqa bo‘ladi va tovush baland bo‘ladi; va aksincha, tebranishlar soni kam bo‘lsa, tovush to‘lqinlari uzun, tovush past bo‘ladi. Ovoz pardalari sekundiga 80 dan 10000 gacha tebranishi mumkin. Ovoz pardalari tebranish paytida butunligicha yoki ma’lum qismlari bilan harakatga kelishi mumkin. Tovush kuchi tebranish kengligiga, ovoz pardalarining tarangligiga va olinadigan nafas kuchiga bog‘liq. O‘z navbatida nafas kuchi – o‘pka va nafas muskullarining hayotiy hajmiga bog‘liq.

Inson ovoz apparati juda murakkab tizimdan tashkil topgan. Uning asosiy qismlari – nafas organlari (o‘pka, nafas yo‘llari, nafas muskullari), hiqildoq va ovoz bog‘lamlari – tovush tug‘iladigan joy, artikulyatsion apparatlarning hamma qismlari bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq. Kuylash jarayoni paytida ovoz apparatining hamma bo‘laklari bir butunlikda ishlaydi. Ovoz apparatining faoliyati bosh miya, markaziy nerv sistemasining boshqaruvi ta’siri ostida bo‘ladi. Tovush apparatining fiziologik tuzilishi masalalarini P. Chesnokov, Sh. Ro‘ziyev, D. Xalabuzar, N. Dmitriyev o‘z ilmiy risolalarida keng va atroflicha yoritib berganlar.

Tovush – ovoz apparatining mahsulidir. Tovush hosil qilishni fonatsiya (yunoncha «fono» – tovush) deb ham yuritiladi. Balandligi, kuchi va go‘zalligi jihatidan xilma-xil bo‘lgan bu tovushlar hiqildoqda (yuqori nafas sistemasida) hosil bo‘ladi. Hiqildoq – tovush hosil qiluvchi organ. Qo‘shiq aytishga monand tovush ovoz pardalarining tebranishi hamda rezonatorlar tovushni kuchlantirishi natijasida paydo bo‘ladi. P. Chesnokovning ta’rificha, “ovoz boylamlari bizning ovoz asbobimizning torlaridir, havo oqimi esa kamoncha bo‘lib, bu torlarni kuylashga majbur qiladi”.

Hosil bo‘lgan tovushni ***rezonatorlar*** kuchlantiradi va har xil tembr bo‘yoqlari beradi. Rezonatorlar ikki xil bo‘ladi: yuqori va pastki.

Yuqori – bosh rezonatorlarga ovoz pardalarining yuqorisida joylashgan hiqildoq, burun va og‘iz bo‘shliqlari kiradi.

Pastki – ko‘krak rezonatorlarga – ko‘krak qafasi (traxeya, bronxlar) kiradi.

Rezonatorlar tovush hosil qilish paytida o‘z shaklini, hajmini artikulyatsion apparati orqali o‘zgartirib turadi. Til, lablar, jag‘lar, hiqildoq, ovoz pardalari bilan birgalikda ***artikulyatsion apparat*** deb ataladi. Artikulyatsion apparatning aniq, chiroyli talaffuzga erishishdagi ishi ***artikulyatsiya*** deb ataladi.

Ovozni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish qiyin jarayon hisoblanadi. U ovoz apparatining to‘g‘ri holda bo‘lishi va ovoz chiqarishi, tovushni cho‘zib tura bilishi, nafas tayanchiga erishish kabi jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

Tovush hosil qiluvchi tovush fiziologiyasining asosiy holatlari kattalarda qanday bo‘lsa, bolalarda ham shunday. Biroq shuni unutmaslik kerakki, bolalar ovoz apparati juda nozik. U o‘ziga juda ehtiyotkorlik va e’tibor bilan muomala qilishni talab etadi. Ko‘pincha ovoz apparati kasalliklari va undagi nuqsonlar bolalik chog‘ida vokal tarbiya noto‘g‘ri berilganligi asoratidir.

Bolalar ovoz apparati (bunda biz 1–7-sinf o‘quvchilari yoshini (7–13) hisobga olamiz, chunki musiqa madaniyati darslari umumta’lim maktablarida faqatgina shu sinflarda o‘tiladi) kattalar ovoz apparatidan o‘z hajmi va shakli bilan farq qiladi. U doimo o‘sish va rivojlanish holatida bo‘ladi. Bolalar ovozi o‘z rivojida bir necha bosqichlarni bosib o‘tadi.

Hiqildoqning rivojlanishi 3 yoshdan 12 yoshgacha sekin-asta, ravon kechadi. Shuning uchun bolalar katta bo‘lgan sari tovush xarakteri va kuchi o‘zgaradi. Bola ovozi rivoji davrlari uning umumiy jismoniy va asab-ruhiy rivojlanishiga bog‘liq bo‘ladi.

Kichik yoshdagi bolalar ovozining shakllanishidagi asosiy davrlarni ko‘rib chiqamiz:

I davr. Kichik yoshdagi maktab o‘quvchilari (7–9 yoshgacha) ovozi bolalar ovozi jaranglashi xususiyatiga ega. Bolaning o‘sishi ravon ketadi, ovozida ham o‘zgarish sezilmaydi. Ovoz juda mayin, yengil bo‘ladi. “Falset” jaranglashi deyiladi. Ovoz apparti bu yoshda nozik, mo‘rt bo‘lishini o‘qituvchi yaxshi bilishi kerak. o‘z tuzilishiga ko‘ra bu mexanizm (ovoz apparati) hali sodda bo‘ladi, ya’ni ovoz hiqildoqda hosil bo‘lib, ovoz pardalarining chekka qismlari tebranishidan hosil bo‘ladi. Bu pardalar to‘liq holda jipslashmaydi. Tovush hosil bo‘lgan paytda ovoz pardalari orasida “yoriq” qoladi. Qiz va o‘g‘il bolalar ovozida bu paytda farq bo‘lmaydi.

II davr. Bolaning yoshi o‘sishi bilan birga ovoz apparati mexanizmi ham o‘sib boradi. Uning tuzilishi murakkablashadi. Hiqildoqda muhim paylardan – ovoz paylari rivojlana boshlaydi. 10–11 yoshli bolalarning ovozi ancha kuchli va quyuqroq eshitiladi. 12–13 yoshlarga borib, bu naylar ovoz pardalarining faoliyatini to‘la boshqaradi, ovoz tarangligi kuchayadi. Bu yoshda qo‘shiqchilik ovozi shakllana boshlaydi. Muayyan tembrdagi ohang paydo bo‘ladi. Shu tufayli o‘g‘il bolalar ovozi diskant va altga bo‘linadi. Diskantlar (baland ovozlar) o‘zining yengilligi, jaranglab chiqishi, yorqinligi bilan xususiyatlanadi. Altlar (past tovushlar) esa o‘zining zichligi, quyuqligi va kuchligigi

bilan farq qiladi. Bu yoshda ovoz pardalarining tebranishi faqat chekka qismlarda bo‘lmasdan, balki to‘laligicha hosil bo‘ladi, ovoz kuchli, to‘liq jaranglay boshlaydi.

10–12 yoshli bolalar bilan xor mashg‘ulotlari, kuylash faoliyati yaxshi tashkil etilsa, bu yoshda chiroyli ovoz shakllana boshlaydi. Bu davr bolalar ovozning “gullash” davri deyiladi.

Bolalar ovozini asrash metodlari. Bolalar ovoz apparatining tuzilishi va rivojlanish xususiyatlarini bilish bolalar ovozini saqlash va to‘g‘ri tarbiyalash imkonini beradi. Har bir o‘qituvchi bolalarni qo‘shiq aytishga o‘rgatar ekan, u qo‘shiqni bolalarga xos go‘zal, jaranglagan, tiniq tovush bilan zo‘riqmasdan, tezda charchab qolmasdan, erkin aytadigan qilib tarbiyalashga harakat etishi lozim. O‘qituvchi bolalarga o‘z ovozlarini ayashlari, darsdan tashqari paytda ham qattiq baqirmasliklari, kuylashda zo‘riqmasdan aytish lozimligini muntazam eslatib boradi. Chunki yuqorida aytilganlarga bee’tibor bo‘lish ovoz paylariga chandiq tushishiga olib keladi. Bu esa nafaqat kuylay olmaslik, balki gapira olmaslik holatiga ham olib kelishi mumkin. Ana shunday zararli holatlarga sovuqda muzqaymoq yeyish, qattiq gapirish, tez-tez shamollash ham olib keladi.

Bolalar tomonidan radio, televizor, audio-video yozuvlarda beriladigan kattalar diapazoni uchun yozilgan qo‘shiqlarni kuylash (ayniqsa baland tovushlarda) ularning hali yetilmagan, mo‘rt ovoz apparatiga salbiy ta’sir etadi. Boshlang‘ich sinflarda qo‘shiqchilik ovozini mustahkamlash uchun sog‘lomlashtiruvchi mashqlardan foydalanish zarur: *nafas mashqlari, kuylash va dam olishni almashtirib turish, matnni cho‘zib o‘qish, ritmli o‘qish, ya’ni o‘qituvchining qo‘liga qarab qisqa va uzun bo‘g‘inlarni aytish (“qo‘g‘ircho-o-o-og‘m, qo‘g‘irchoq, sensan me-e-e-enga-a-a o‘yinchoq”), nutq va musiqiy intonatsiyani almashtirish va b.q.* Bunday ishlar nutqi bo‘sh bolalarga ham yordam beradi.

Bolalar ovozi imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda kuylash faoliyatini albatta tayyorgarlik, ya’ni ovoz sozlash mashqlarini ayttirishdan boshlashi lozim. Bu mashqlar kichik diapazonga ega bo‘lib, ularni transpozitsiya qilish imkoniyati ham qulaydir. Ovoz sozlash mashqlarini primar tovushlardan boshlab asta-sekin pastga va yuqoriga ayttirish ovozni qizitish imkonini bersa, transpozitsiyada kuylash bolalarda musiqiy eshituvni o‘stiradi.

Bolalar ovozini asrash uchun repertuarni to‘g‘ri tanlash katta ahamiyatga ega. Shu narsani esda tutish lozimki, haddan tashqari baland yoki past tessiturali qo‘shiqlar bolalar ovoziga zararlidir. Ayniqsa, diapazonning chekka tovushlarida kuylash xavflidir. Bunda ovoz apparati toliqadi.

Ota-onalar o‘rtasida ham tushuntirish ishlarini olib borish katta ahamiyatga ega. Ko‘pincha qobiliyatli bolalarning ota-onalarni o‘z bolalari bilan faxrlanib, o‘z tanishlari oldida ularga ovoz diapazoniga mos kelmaydigan qo‘shiqlarni ayttiradilar. Natijada bolaning ovozini ishdan chiqaradilar. Shuning uchun musiqa o‘qituvchisiga “Bolalar ovozini asrang” mavzusida tashviqot ishlarini olib borish biroz malol kelsa ham, farzandlarimizning ovozlarini asrash ma’suliyatli ishdir.

O‘quvchilarda vokal-xor malakalarini rivojlantirish

Qo‘shiqning badiiy, chiroyli, ifodali ijrosiga erishishning muhim vositasi – o‘quvchilarda vokal-xor malakalarini rivojlantirishdir.

Vokal – xor malakalariga quyidagilar kiradi:

1. Qo‘shiq aytishdagi holat.
2. Qo‘shiqchilik nafasi.
3. Tovush hosil qilish.
4. Talaffuz.
5. Soz.
6. Ansambl.

Qo‘shiq aytishdagi holat. Darsda qo‘shiq kuylashda tik turib yoki o‘tirib kuylash holati qo‘llaniladi. Qo‘shiqni tikka turgan holda ijro etish eng qulay, ma’qul usul hisoblanadi. Bunda gavdani erkin, yelkani kerib, uni biroz orqaga tashlab ko‘krak qafasini to‘g‘ri tutib turish lozim. Boshni biroz o‘ziga qulay bo‘lgan tabiiy holatda, bolalar tik turib qo‘shiq kuylayotganlarida gavdani bukmasdan, qo‘llarini erkin tushirgan holda, oyoqlarini yelka kengligida kichikroq holatda tutib turishlariga e’tibor berish kerak. O‘qituvchi bu holatlarni kuzatishi, o‘quvchilarga eslatib turishi zarur, ya’ni bu bilan qo‘shiq kuylashdagi holat ko‘nikmaga aylanishiga erishiladi.

Musiqa darslarida o‘tirib kuylash holati ko‘p qo‘llaniladi. Bunda ham gavda va boshning holati tik turib kuylash holatiga o‘xshaydi. Stulning chekkarog‘iga o‘tirish, qo‘llar esa tizzaga erkin qo‘yilishiga e’tibor qaratiladi.

O‘rganish davrida qo‘shiqni o‘tirib kuylash, o‘rganib bo‘lingan qo‘shiq ijrosida tik turib kuylash qo‘llanadi.

Qo‘shiqchilik nafasi. Qo‘shiq aytishda nafasni to‘g‘ri olish asosiy malakadir. “Qo‘shiqchilik san’ati – nafas olish san’ati”, deb aytishgan allomalar. Kuylash nafasini rivojlantirishning ahamiyati katta. Bolalarda nafas malakalarini rivojlantirishda fiziologik taraflariga urg‘u berish shart emas. Nafas qo‘shiqlar, mashqlarni o‘rgatish sharoitida rivojlantirib boriladi. O‘pkaga me’yorida havo olib, so‘ng bir zum to‘xtatib, keyin uni musiqaviy jumlaning oxirigacha ravon va osoyishta sarflash – chiroyli tovushda kuylashga olib kelishini o‘qituvchining o‘zi ko‘rsatib beradi. Dirijorlik ishorasida ham bu o‘z ifodasini topadi. Qo‘shiqlarni kuylash jarayonida o‘quvchilar to‘g‘ri nafasning chiroyli tovush shakllanishida va ifodali kuylashdagi ahamiyatini tushunib yetadilar. To‘g‘ri nafas olganda bolalar bel kengayayotganligini sezishlari kerak. Keyinchalik o‘quvchilar havo o‘pkadan ketmasdan “turib” qolayotgandek bo‘layotganini his etadilar. Bu *tovush tayanchi* hosil bo‘lishining asosidir.

Tovush tayanchi – nafas va hiqildoqning o‘zaro harakati, to‘la erkinligi. Asar qanday sur’atda ijro etilishidan qat’i nazar, nafasni har vaqt shovqinsiz, osoyishta, yelkalarni ko‘tarmagan holda olish kerak.

Tovush hosil qilish – ovoz pardalarining birikishi va ochilishi tufayli hosil bo‘luvchi qo‘shiqchilik tovushi qo‘shiqchilik nafasi bilan uzviy bog‘liq. Badiiy vokal ijroning

asosiy talabi – to‘g‘ri va chiroyli kuylash ovozidir. Bunday tovush yumshoq tanglayning yetarli harakatchanligi, ovoz pardalarining bir tekis tebranishi, sokin va ravon nafas natijasida hosil bo‘ladi. Qo‘shiqchilik ovozi diapazonning hamma qismlarida bir tekis jaranglashi lozim. Pastki tovushlarni aytganda ovoz pardalarining tarangligi kamroq bo‘ladi. Bu tovushlar ko‘krak qafasi sohasidagi rezonatorlar yordamida jaranglaydi. Yuqori tovushlarda ovoz pardalari tarangligi oshadi. Ovoz bosh rezonatorlar sohasida hosil bo‘ladi.

Bolalar tembrining rivojlanish jarayonida tovush “hujumi” – atakasi katta ahamiyatga ega.

Tovush atakasi – tovushning eng birinchi paydo bo‘lish payti. Amaliyotda qattiq, yumshoq, nafasdan oldingi turlari uchraydi.

Qattiq ataka – olingan nafas bir oz ushlanib turiladi, ovoz pardalari tovushdan oldin tez va zich birlashadi.

Yumshoq ataka – ovoz pardalari tovush hosil bo‘lishi bilan bir paytda birlashadi. Bu ataka mayin, tinch, tekis tovush boshlanishini hosil qiladi.

Qo‘shiqchilik tovushini hosil qilishda asosan yumshoq ataka qo‘llanadi. Ammo bolalarda ovoz apparatining sustligini nazarda tutgan ba’zi hollar faol tovushni hosil qilish uchun qattiq atakani qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Talaffuz. Diksiyani (to‘g‘ri aniq talaffuzni) rivojlantirish usullari adabiy matn va qo‘shiqning badiiy obrazi xususiyatlari bilan aniqlanadi va so‘zlarning ma’noviy ahamiyatini tushuntirishni talab etadi. Bunda matnni qo‘shiq ritmida aytish hamda ifodali o‘qish metodlaridan foydalanish mumkin. Ma’lum bir jumlalarni alohida ta’kidlash yoki obrazning xarakter xususiyatlarini ifodalashdan ham foydalanish mumkin.

Qo‘shiq kuylash jarayonida **artikulyatsion apparat** – *pastki jag‘, lablar, tishlar, til* maksimal darajada faol ishlashi kerak. Yosh ijrochilarda ko‘pincha artikulyatsiya bo‘sh yoki siqilgan bo‘ladi. Bunday nuqsonlar yuz muskullarining osoyishtaligini saqlagan holda pastki jag‘ni erkin holda pastga tushirish orqali bartaraf etiladi. Bunga bir tovushda kuylanuvchi “da-de-di-do-du” mashqi yaxshi yordam beradi. Matnni o‘rganishda “shivirlab aytish” metodidan ham foydalanish mumkin. Bunday metod artikulyatsion apparatining harakati aktivligini hosil qiladi va shu holatini kuylashga ko‘chirish mumkin.

Kuylashning asosi – unlilar talaffuzidir. Ularda tovushning vokal sifatlari tarbiyalanadi. Unlilarni to‘g‘ri talaffuz etish bir tomondan, kuylayotganda tovushning chiroyli chiqishini ta’minlasa, ikkinchi tomondan, qo‘shiqdagi so‘zlarning ohangdor bo‘lishiga yordam beradi. A, O, U, E, I unlilarini to‘g‘ri (cho‘ziq) shakllantirish mayin, kuychan tovushga yordam beradi. Unlilarning bir tekisda jaranglashi uchun bolalar kuylash diapazonining hamma tovushlarida yuqori pozitsiyani saqlab turishlari lozim. Buning uchun “u, yu, a” unlilariga turli mashqlar hamda kuyi pastga qarab harakat qiladigan qo‘shiqlar qo‘llaniladi.

Unli tovush qo‘shiqning asosi bo‘lib, cho‘zib kuylansa, undoshlarning qisqa, tez, aniq, harakatchan talaffuzi qo‘shiq matnini tinglovchiga yetkazishda muhim

ahamiyat kasb etadi. So‘z talaffuzi quvnoq, chaqqon, marshona hamda raqsona qo‘shiqlarni kuylash jarayonida shakllanadi (D. Omonullaevaning “Buvijonim”, “Nisholda”, A. Berlinning “Yomg‘ir yog‘aqol”i va boshqalar). Vokal talaffuz nutq talaffuzidan farq qilishiga e’tibor berish lozim. Masalan, nutqda **“os-mon-ning yul-du-zi-miz”** jumlasi kuylashda **“o-smo-nning yu-ldu-zi-miz”** deb talaffuz qilinadi. Ya’ni, yopiq bo‘g‘inlardagi oxirgi undosh tovush keyingi bo‘g‘inga o‘tkazib kuylanadi: **“mak-tab”** emas **“ma-ktab”**; **“lay-lak qor”** esa **“la-yla-kqor”** shaklida aytiladi. Bunga o‘qituvchi doimo e’tibor berib borishi zarur.

Soz va ansambl. Eng muhim malaka – xor bo‘lib kuylashda kuyning to‘g‘ri va sof intonatsiyasi, ya’ni sozdir. Bu malakani rivojlantirishga qaratilgan usullar musiqiy-eshituv tasavvurini shakllantirish bilan juda uzviy bog‘langan. Quyidagi metodlarni qo‘llash mumkin:

– kuylashdan oldin “sozlanish” – o‘qituvchi birinchi tovushni cho‘zib kuylaydi va bolalar qaytaradilar;

– qo‘shiq kuydagi ma’lum bir tovushda (ko‘pincha oxirgi tovushda) o‘qituvchining ko‘rsatmasiga binoan “ushlanib qolish” va uning jaranglashini eshitish;

– qo‘shiqni o‘rganishdan oldin turli tonalliklarda mashqlarni, qo‘shiqning murakkab intervallarini sof kuylashga erishgan holda ijro etish;

– ancha kengroq diapazonga ega bo‘lgan bolalar bilan qo‘shiqni balandroq tonallikda ijro etish;

– bolalarda musiqiy-eshituv tasavvurini o‘stirishga qaratilgan mashqlarni (kuyning harakati, baland-past tovushlarga e’tiborini tortishni) o‘rgatish;

– eshituv tasavvurini chuqurlashtirish maqsadida qo‘l harakatlari, kuyning grafik tasviri, nota yozuvlari, dirijyorlik ifodalaridan foydalanish;

– jo‘rsiz kuylash metodidan foydalanish.

Ansambl (fransuzcha *ansamble* – *birgalikda* ma’nosini bildiradi) ijrosidagi intonatsion, bir uslubda tovush hosil qilish, ritmik, dinamik, temp uyg‘unlik birligi, qo‘shiqni bir vaqtda boshlab, bir vaqtda tugatish malakalaridan iboratdir. Ansambl ustida ishlaganda bolalarda mas’uliyat hissini, kuylash jarayonida o‘zini va o‘rtoqlarining ovozini eshita olish, nazorat qilish, tovush sifatini tahlil qilishga odatlantirib borish lozim.

Soz malakasi ansamblning vujudga kelishida asosiy omildir. Qo‘shiqlarning badiiy ijrosiga soz va ansamblning uyg‘unligi vositasida erishish mumkin. Sozning sifatiga o‘quvchilarning umumiy emotsional holati ta’sir etadi. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan vokal-xor malakalarini rivojlantirish ustida ishlar ekan, ularda musiqa darslariga muntazam qiziqishni o‘stirishi, ovoz gigiyenasi hamda qo‘shiqlarning ijroviy darajasi va xarakteri sinf darajasiga mosligiga doimo e’tibor berishi lozim.

Ovoz sozlash mashqlari. Ovoz sozlash mashqlari – bolalarni jamoa bo‘lib kuylashga o‘rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ovoz sozlash mashqlarining maqsadi – qo‘shiqchilik malakalarini shakllantirish, bolalar ovozini, diapazonni, musiqiy eshituvni rivojlantirish.

Ovoz saqlash mashqlarini ikki guruhga bo‘lish mumkin. Birinchi guruhga aniq bir qo‘shiq asari bilan bog‘liq bo‘lmagan mashqlar kiradi. Bunday mashqlar bolalar vokal-xor ijrochiligi malakalari, badiiy ijrochilik mahoratini egallab borishiga yordam beradi. Bu guruhdagi ovoz sozlash mashqlari har bir darsda butun o‘quv yili davomida qo‘shiq o‘rgatishga o‘tishdan oldin qo‘llanadi.

Ikkinchi guruhdagi mashqlar konkret qo‘shiq asarini o‘rganishda uchraydigan qiyinchiliklarni (intonatsion, ritmik, diksion, temp) bartaraf etishga qaratilgan. Tabiiyki, qo‘shiqdagi murakkab joylar ovoz sozlash mashqi sifatida bir necha bor qaytarishlar asosida yaxshi o‘zlashtiriladi.

Mashqlarni kuylashda o‘quv vazifalari oddiydan murakkabga qarab o‘zgarib boradi. Boshlang‘ich sinflarda ovoz sozlash mashqlari sifatida xalq bolalar qo‘shiqlari (“Oftob chiqdi olamga”, “Oq terakmi, ko‘k terak?”), mashq uchun mo‘ljallangan kuychalar (“Jarangli kuylaymiz”, “Du-du-du – qanday gul bu?”), musiqiy tovushlar qo‘llanadi. 4-sinfdan boshlab bolalarda mashqlarga ongli munosabatni tarbiyalash muhimdir. Ularga ovoz sozlashning muhimligi, ya’ni ovozlarni ish holatiga keltirish lozimligi tushuntirib boriladi. Bolalarga yoqadigan, qiziqish uyg‘otadigan mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Darsda qo‘llanadigan ovoz sozlash mashqlari kuylash uchun qulay bo‘lishi, davomli ravishda o‘zlashtirilishi lozim.

MUSIQA REPERTUARINI O‘RGATISH BO‘YICHA USLUBIY TAVSIYALAR

Umumta’lim maktablari “Musiqa madaniyati” dasturi qo‘shiq kuylash va musiqa tinglash uchun berilgan asarlarni tanlab olish, badiiy jihatdan teng bo‘lgan, chorak mavzularini yoritib berishga xizmat qiladigan boshqa asarlarga almashtirishda musiqa o‘qituvchisiga erkinlik berishi muhim. 2000-yillarda yaratilgan dasturda ushbu jihat ta’kidlab o‘tilgan. Bu maktab musiqa repertuarini boyitish, muntazam ravishda ijodiy yangilab turish, o‘quvchilarni nafaqat darsliklarda berilgan asarlar bilan, balki musiqa san’atining (dasturga kirmagan) ko‘plab nodir namunalari bilan tanishtirish imkonini yaratadi.

Darsning yetakchi faoliyatlari bo‘lgan **musiqa tinglash** va **jamoa bo‘lib kuylash** faoliyati uchun olingan asarlarning badiiy va tarbiyaviy saviyasi, ularning o‘zlashtirilishi darajasi, ya’ni idroki va ijro sifati, bunda o‘qituvchining kasbiy-ijodiy mahorati musiqiy ta’lim-tarbiyaning samaradorligini ta’minlaydi.

Biz shularni hisobga olgan holda boshlang‘ich sinflarda jamoa bo‘lib kuylash va musiqa tinglash uchun asosiy va qo‘shimcha musiqiy material sifatida dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda qo‘llash uchun O‘zbekiston kompozitorlarining qator asarlarini va ularni o‘rgatish bo‘yicha ba’zi tavsiyalarni keltiramiz.

Musiqa madaniyati darslarida tinglash va kuylash uchun olinadigan asarlarni o‘rgatish bo‘yicha ish bosqichlari, ularning ketma-ketligi, o‘rgatish uslublari, tinglash va kuylash ko‘nikmalarini shakllantirish yo‘llari, o‘quvchilar yoshiga mos holda asarlarning badiiy-pedagogik tahlilini o‘tkazish ikkinchi bobda batafsil yoritilganligi sababli quyida bir qancha asarlar uchun tavsiyalar bilan cheklandik.

MUSIQA TINGLASH UCHUN TAVSIYA ETILGAN ASARLAR TAHLILI

G‘. QODIROV. “YUBILEY MARSHI”

Kompozitor G‘ofur Qodirovning (1917–1985) jozibali qo‘shiqlari, simfonik va sahna musiqasi, ayniqsa, bolalar uchun yozgan asarlari milliy musiqa madaniyatimizni boyitdi va kelajak avlod uchun betakror meros bo‘lib qoldi.

Ijodiy faoliyati davomida G‘.Qodirov turli janrlarga murojaat etib, yorqin asarlar yaratdi. Simfonik orkestr uchun “O‘zbek marshi”, simfoniya, “So‘zana raqsi”, “Yoshlik uvertyurasi”, “Raqs syuitasi”, xalq chog‘ulari orkestri uchun 4 ta “Syuita”, “Kichik uvertyura”, damli cholg‘ular orkestri uchun “Shodlik marshi”, “Yubiley marshi”, “Shodlik” baleti, fortepiano uchun “Raqs”, “Rondo”, “Paxta raqsi”, “Prelyudiya va variatsiya” kabi asarlari, “G‘azal”, “Va’da”, “Quyoshli O‘zbekiston”, “Bahor qo‘shig‘i”, “O‘zbekiston” kabi romans-qo‘shiqlari shular jumlasidandir.

G‘. Qodirov ijodida bolalar musiqasi alohida o‘rin egallaydi. “Bog‘chamiz”, “Salom, yangi yil”, “Bahor keldi”, “Binafsha”, “May”, “Baxtli avlod”, “Dangasallik – kasallik”, “Ona qo‘llari” kabi bolalar qo‘shiqlari yosh avlod uchun katta ijodiy maktab bo‘lib xizmat qilmoqda. Mualliflik to‘plamlari “Pilla”, “Qo‘riq yer qo‘shiqlari”, “Baxtli avlod”, “Baxt qo‘shig‘i”, “Quyosh va biz”, fortepiano uchun pyesalar alohida nashr etilgan. Kompozitorning “Maktabjon – oftobjon”, “Yosh paxtakorlar”, “Vatan qo‘shig‘i” syuitalari, “Vatan qalblarda”, “Yosh binokorlar” kantatalari respublikamizda bolalar ijrosi uchun mo‘ljallangan vokal-simfonik janrining vujudga kelishiga asos bo‘ldi.

G‘. Qodirovning “Yubiley marshi” asarini tinglash va idrok etish orqali o‘quvchilarning marsh janri haqidagi bilimlari chuqurlashadi. Tinglashdan oldin o‘qituvchi o‘quvchilarga O‘zbekistonning taniqli kompozitori G‘. Qodirov va uning hayotiy-ijodiy yo‘li haqida qisqacha ma’lumot beradi. O‘qituvchi taklifiga ko‘ra, bolalar o‘zlariga tanish bo‘lgan bir necha marsh asarlarini eslaydilar (F. Nazarov “Yurish marshi”, “Usmoniya” xalq kuyi, P. Chaykovskiy “Yog‘och askarchalar marshi” va h.k.). Bolalar marsh musiqasi asosan shaxdam, harakatchan, quvnoq bo‘lib, qadam tashlab yurish uchun qulayligini aytadilar.

G‘.Qodirovning “**Yubiley marshi**” asarini tinglab, o‘quvchilar uning yorqin, shodon kuyi va shaxdam xarakterini o‘qituvchi yordamida bilib oladilar. Ohangdagi tantanavorlik, ulug‘vorlik bu asarni boshqa marshlardan ajratib turishini bilib oladilar.

O‘qituvchining “Musiqaning qanday vositalari asarga tantanavorlik ruhini beradi?” degan savoliga bolalar: “Major ladi, fortepianoda asosiy kuyga pastki tovushlardagi “quyuq” jo‘rnavozlik, ohang ritmidagi keskinlik, jarangdorlik”, deb javob beradilar (20-betga qaralsin). Qayta tinglashdan oldin o‘quvchilarga asardagi musiqaning qanday rivojlanib borishini kuzatish va “musiqa asari oxirigacha shun-

day bir kayfiyatda ketadimi yoki o‘zgaradimi?” degan savolga javob berish vazifa qilib qo‘yiladi. Bolalar musiqani diqqat bilan tinglab, asar o‘rtasida musiqa o‘zgarishi, o‘rta qism o‘z xarakteriga ko‘ra biroz “yengillashgani”, keskinligi kamayganligini, ya’ni musiqa qo‘shiqonalik, mayinlik xususiyatlarini aks ettirishini aytadilar. Uchinchi qismda yanada balandroq va jarangdor tovushlarda birinchi qism musiqasi qaytarilishini bilib oladilar.

Asarni qayta tinglashda musiqiy-ritmik harakatlar va cholg‘ularda ritmik jo‘r bo‘lishni qo‘llash mumkin. Sinf ikki guruhga bo‘linadi. Birinchi guruh 1- va 3-qismlarda marshga qadam tashlaydilar. Bu paytda ikkinchi guruh cholg‘ularda musiqaning kuchli hissalariga barabanda jo‘r bo‘ladilar. O‘rta qismida ikkinchi guruh qadam tashlaydi, qolganlar ritmga jo‘r bo‘ladilar. Shu yo‘l bilan o‘quvchilarga musiqa ifoda vositalarining ahamiyati, musiqaning o‘zgarishi, qaytarilishi (oddiy uch qismlik) haqidagi tasavvurlar mustahkamlanadi.

Bu asar uchinchi sinfda tinglash uchun tavsiya etiladi.

YUBILEY MARSHI

G‘. Qodirov musiqasi




2.
ff
1.
2.
mf

X. IZOMOV. “POLKA”

Xayri Izomov (1922–2009) ikkinchi avlodga mansub o‘zbek professional kompozitorlardan. O‘zining yorqin ijodi bilan O‘zbekiston musiqa san’ati rivojiga munosib hissa qo‘shgan.

Konservatoriyada o‘qib yurgan yillaridayoq u “Pari”, “Vatan olqishi”, “O‘zbekistonim manim” romans va qo‘shiqlari, fortepiano uchun “Tokkata” asari bilan mashhur bo‘ldi. Musiqaning turli janr va shakllarida asarlar yaratdi. Uning “Qahramon qo‘llar”, “Jonli elim”, “Yoshlik bayrami”, “Tinchlik haqida yoshlar qo‘shig‘i”, “Dutorim”, “Toshkent osmoni”, “Sayr etdim” kabi qo‘shiqlari, simfonik orkestrga o‘zbekcha syuita, skripka va fortepiano uchun pyesa, fortepiano uchun etyud, “Noktyurn” va boshqa ko‘plab asarlari el-yurt muhabbatiga sazovor bo‘ldi. Kompozitor bir qator spektakllarga ham musiqa bastaladi. “Oygul va Baxtiyor”, “Iqbol”, “Vafodorlik” kabilar shular jumlasidan.

X. Izomov “Polka” pyesasini tinglashdan oldin o‘qituvchi o‘quvchilarga raqs musiqasi janrlari haqida yana bir bor eslatadi. “Polka” – qadimgi xalq raqsi bo‘lib, uning vatani Chexiyadir. Bu raqsni doimo juft bo‘lib, jonli sakrama harakatlar bilan ijro etganlar.

X. Izomovning “Polka”si o‘zining jozibadorligi, yengil, o‘ynoqi, sho‘x xarakteri bilan ajralib turadi. O‘quvchilar asarni fortepiano cholg‘usida o‘qituvchi ijrosida tinglaydilar, tempini aniqlaydilar (tez, jonli). “Polka”ni qayta tinglashdan oldin o‘quvchilarga musiqadagi o‘zgarishni (qismlar almashuvini) qo‘l ko‘tarib aniqlash vazifasi beriladi. O‘quvchilar e’tibori asarning baland registrda jaranglashiga tortiladi.

Idrokni chuqurlashtirish maqsadida shu musiqa ostiga turli musiqiy-ritmik harakatlarni kiritish mumkin: asarning kirish qismida bolalar qisqa chapaklar (sakkiztalik cho‘zimlar) bilan jo‘r bo‘ladilar. Birinchi jumlaga bilaklarini yelka balandligida yengil silkitadilar. Yuqori registrda *ff* ga jaranglovchi keyingi jumlaga bolalar boshlari uzra bilak harakatlarini davom ettiradilar. Musiqaning qaytarilish qismlarida qo‘l harakatlari kuyga mos ravishda takrorlanadi. Bu harakatlarni bajarish jarayonida o‘qituvchi asardagi dinamik, melodik o‘zgarishlarning o‘quvchilar tomonidan qay darajada his etilayotganligini tekshirish imkoniga ega bo‘ladi.

Tinglashdan so‘ng o‘quvchilar o‘qituvchi yordamida asar ikkita musiqiy jumla va ularning qaytarilishi asosida tuzilganligini, birinchi jumla o‘rta kuch bilan, ikkinchi jumla kuchli ijro qilinishini bilib oladilar.

Bu asar asosida o‘quvchilar ikki qismli oddiy shakl haqida (“shakl” so‘zini ishlatmagan holda), baland va o‘rta tovushlar, o‘rtacha va kuchli ijro (dinamikalar) haqida tasavvurga ega bo‘ladilar.

Asar 3-sinfda musiqa tinglash uchun tavsiya etiladi.

POLKA

X. Izomov musiqasi



www.idum.uz saytidan yuklab olindi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. Yangi O‘zbekiston gazetasi № 25 (547), 2022-yil 4-fevral.
3. Jabborov A. X. O‘zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari. T.: “Musiqa”, 2004.
4. Liliyev A. X. O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik. T.: “Mehnat”. 2001.
5. Xo‘jayeva M. Umumta’lim maktablarida musiqa o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. T., 2008
6. Музыкальное воспитание школьников. Белобородова И.К., Ригина Г.С., Алиев Ю. Б. М.1975.
7. Musiqa alifbosi. 1-sinf uchun darslik. Nurmatov H., Norxo‘jayev N. T.: “G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”, 1998.
8. Musiqa. 2-sinf uchun darslik. Nurmatov H. va b. T.: “G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”.1999.
9. Musiqa. 3-sinf uchun darslik. Nurmatov H., Norxo‘jayev N. – T., 2002.
10. Musiqa. 4-sinf uchun darslik. O.Ibragimov. – T., 2004.
11. Назайкинский Е. О. психологии музыкального воспитание. М.1972
12. Петрушин В. Музыкальная психология. М.,1997.
13. Петерс В. Педагогическая психология. М.: “Гуманитарный издательский центр Владос”. 2006
14. Халабузарь П. Ф., Добровольская Н. Д. Методика музыкального воспитания. М.1989.
15. Xo‘jaeva M. X. Musiqa idroki va uni rivojlantirish. “Xalq ta’limi” jurnali 2005-yil. 1-son.
16. Qodirov R. G‘. Boshlang‘ich sinflarda ko‘p ovozli kuylash malakalarini shakllantirish. T., 1997.
17. Qodirov R. G‘. Musiqa psixologiyasi. T.: “Musiqa”, 2005.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

MUNDARIJA

Kirish 3
O‘quv majmua haqida 4
Qo‘llanma haqida 6
3-sinfda musiqa madaniyati darslarini tashkil etish yuzasidan metodik tavsiyalar 7

I bob. Musiqada pauzalar 10
1-dars. Mustaqilligimiznikuylaymiz 10
2–3-darslar. Pauzalar haqida tushuncha 19
4–5-darslar. Yarimtalik pauzalar 23
6–7-darslar. Chorak va nimchorak pauzalar 28
8–9-darslar. 3/4 va 4/4 o‘lchovlari 34

II bob. Musiqa olamiga sayohat 45
1–2-darslar. Musiqaning ifoda vositalari 45
3–4-darslar. Ritm (usul) 51
5–6-darslar. Musiqa va harakat. Raqs 55
7-dars. Torli cholg‘u. Chang cholg‘usi 61

III bob. Ansambl turlari 67
1–2-darslar. Ansambl 67
3–4-darslar. Cholg‘uchilar ansambli 75
5–6-darslar. Xonandalar ansambli 82
7–8-darslar. Sh. Yormatov nomidagi “Bulbulcha” bolalar xori va raqs ansambli 87
9–10-darslar. “Tomosha” bolalar musiqiy teatr-studiyasi 94

IV bob. Kompozitorlar bolalarga 99
1–2-darslar. Kompozitorlar haqida tushuncha. Kompozitor Mutal Burhonov 99
3–4-darslar. Kompozitor Farhod Alimov 108
5–6-darslar. Kompozitor Avaz Mansurov 117
7–8-darslar. Kompozitor Xurshida Hasanova 123

Umumta’lim maktablarida musiqa madaniyati fanini o‘qitishga doir metodik tavsiyalar 130
O‘quvchilar ovozi rivojlanishining yosh davrlari bo‘yicha xususiyatlari 130
Musiqa repertuarini o‘rgatish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar 136
Musiqa tinglash uchun tavsiya etilgan asarlar tahlili 137
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati 142

MUSIQA
3

Ta’lim o‘zbek va qardosh tillarda olib boriladigan maktablar o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma

Muharrir *Orifjon Madvaliyev*
Rassom *Umid Sulaymonov*
Dizayner *Ixvoliddin Saloxiddinov*
Texnik muharrir *Akmal Sulaymonov*
Sahifalovchi *Bobur Tuxtarov*
Musahhih *Xurshidbek Ibrohimov*

Bosishga ruxsat etildi 17.05.2022. Bichimi 60x84 1/8.
Arial garniturasi. Kegli 12 shponli. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog‘i 15,81. Nashriyot-hisob tabog‘i 11,88.
Adadi _____ nusxa. Buyurtma № ___.